

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVESITETI

Adabiyotshunoslik kafedrası

Qo'lyozma huquqida

Tuychiyeva (Musayeva) Ravshanoy

Adabiyotda sehrli raqamlar sirining ifodalanishi

5220100-filologiya

(o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr akademik darajasini
olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari: T. Abdukarimov

Farg'ona – 2013 yil

Mundarija:

I. Kirish. “Sehrli raqamlar” haqida tushuncha va ularning tarixiy asoslari.....	3
II. Asosiy qism:	
1 - bob. Ertaklarda “sehrli” raqamlar.....	15
1.1. O’zbek xalq ertaklaridagi an’anaviy uchliklar.....	15
1.2. “To’rt” raqamining ertaklardagi badiiy funksiyasi.....	18
1.3. “Besh” raqami va barmoqlar vositasida sanash usuli.....	21
1.4. “Yetti” raqami haqidagi xalq qarashlari va ertak poetikasi....	24
2 – bob. Ertaklar poetikasida “sehrli” raqamlarning o’rni.....	35
2.1. Ertaklardagi an’anaviy “to’qqiz” sonining badiiy funksiyasi.	35
2.2. “Qirq” raqami va epik ko’plik tushunchasi.....	38
III. Xulosa	51
IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati	54
V. Ilova	56

I. Kirish. “Sehrli raqamlar” haqida tushuncha va ularning tarixiy asoslari.

Mustaqillik sharofati bilan insonlarning ma’naviy-ruhiy olami, turmush tarzi, dunyoqarashi, jamiyat, umuman, turli jabhalarda yangicha qarash va rivojlanishlar ro’y berdiki, o’tgan fursat uchun bu katta yutuqdir. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ustuvor vazifalardan biri sifatida komil insonni tarbiyalash belgilanganligining o’zi ham uzoqni o’ylab amalga oshirilgan ezgu ishlardan biri ekanligini jamiyatimizning bugungi qiyofasi isbotlab turibdi.

Yangicha qarashlar, ilmiy tahlillar hamisha ham ahamiyatlidir. Zero, “biz istiqbolimizni fikrlar rang-barangligini o’z hayotimizga kengroq joriy qilishda ko’ramiz”¹.

Hayotimizda so’zlashuv jarayonida shunday iboralardan foydalanamizki, ularda qo’llanilayotgan raqamlarning o’rni iboralarga o’zgacha joziba berib turadi. Ertaklarda qo’llanilayotgan raqamlar esa o’quvchining qiziqishini yanada oshiradi. Bu BMI **mavzusining dolzarbligini** ta’minlaydi.

Mavzuning o’rganilish darajasi. BMI uchun tanlangan mavzu adabiyotshunoslikda muayyan darajada o’rganilgan mavzudir. Jumladan, Mamatqul Jo’rayevning “Yetti iqlimdagi “yetti”lar” va “O’zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar” asarlarida mavzu keng yoritilgan. Biroq BMI mavzusi alohida ish sifatida o’rganilgan emas.

Shuning uchun ham bu mavzuni bitiruv-malakaviy ish sifatida tadqiq etishni lozim topdik.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. BMIning asosiy maqsadi o’zbek va turli xalq ertaklari, iboralari va marosimlarda qo’llaniluvchi raqamlarni tadqiq etishga qaratilgan.

BMIning maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

¹ Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. 2008. 114-bet.

- mavzuni chuqur va ilmiy jihatdan o'rganishga asos bo'ladigan adabiyotlarni o'rganish va tahlil etish;
- ertaklardagi qo'llanilgan raqamlarning o'ziga xos talqinini tadqiq etish;
- turli xalq ertaklarini qiyosan o'rganish ba umumlashtiruvchi xulosalar berish;
- mavzuni o'rganilishi yuzasidan umumlashtiruvchi xulosalar berish.

BMIning ilmiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda o'zbek xalq ertaklari va iboralari chuqur o'rganildi va umumlashtiruvchi xulosalar berildi.

“Sehrli” raqamlarning poetik xususiyatlari va qo'llanilish o'rnini alohida tadqiq etildi.

BMI natijalari va undagi xulosalar tarixiga oid yangi ilmiy tadqiqotlarda, adabiyotshunoslik, darslik tayyorlashda hamda oliy o'quv yurtlari uchun ma'ruzalar o'qishda keng foydalanish mumkin.

BMIning tuzilishi. Ish kirish, ikki bob, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Keksalar suhbatiga quloq tutsangiz, uddaburon, ishbilarmon odamlar haqida “qilni qirq yoradigan” iborasini eshitasiz. Nahotki, qilni qirqtaga bo'lish mumkin bo'lsa, deb ajablanishingiz tabiiy. Gap shundaki, bunday iboralarda insonning ma'lum faoliyati bilan bog'liq imkoniyatlari bo'rttirib ko'rsatiladi. Ya'ni “qirq” so'zi bu o'rinda siz bilgan raqam sifatida qo'llanilmaydi, balki “juda ko'p”, “son-sanoqsiz” degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, “qirchillama qirq yoshida”, “qirq quloqli qozon”, “qirq kokilli qiz” kabi iboralar ham shu tarzda yaratilgan.

Tilimizda raqamlar bilan bog'liq bunday ibora va tushunchalar juda serob. “Yetti qavat niqob”, “to'qqiz o'ngarilgan tog'”, “to'qqiz paxsali qo'rg'on”, “qirq gazli shamshir”, “qirq quloch soch” iboralari doston va ertaklarda uchrasa, jonli so'zlashuvda “ko'zi to'rt bo'lmoq”, “to'rt tomoning qibla”, “yetti o'lchab bir kes” kabi iboralarni ko'p ishlatamiz. Ayniqsa, o'zbek xalq ertaklarining badiiy olami “g'aroyib raqamlar”ga nihoyatda boy: uch og'a-ini botirlarning borsa kelar, borsa xatar, borsa kelmas deb ataluvchi uch yo'ldagi sarguzashtlari, kenja botirga uch

vazifa topshirilishi, yalmog'iz kampir bilan uch olishuv, nuroniy chol bergan uch narsa – oyna, taroq, ignaning g'aroyib xislatlari tasviri nechog'li qiziqarli bo'lsa, qirq qaroqchi yoki qirquin qizlarga bag'ishlangan ertaklar ham shunchalik maroqlidir. Ayrim raqamlar muayyan maqollarni butunlay “o'ziniki” qilib olganga o'xshaydi. Deylik, “yetti” raqami ishlatilgan maqollarni bilasizmi? “Yetimning haqi yetti daryoni quritar”, “Bola yettiga kirguncha yerdan yetti tayoq yeydi”, “Yeridan ayrilgan yetti yil yig'lar”, “Yetti o'lchab bir kes” kabi. Har gal shu maqollarga duch kelganda nega endi aynan yetti marta ekan deb o'ylab qolasan kishi. To'g'ri-da, “yetti” raqami o'rniga “to'qqiz” raqamini qo'yib, “To'qqiz o'lchab bir kes” degan ma'qul emasmi? Axir sakkiz yoki to'qqiz marta o'lchansa, shoshilmasdan, obdon o'ylab ko'rilsa yanayam yaxshi bo'ladiku!

“Yetti” raqami xalq og'zaki ijodiyotida, jonli so'zlashuvdagi ayrim ibora va tushunchalar tarkibiga shu qadar singib ketganki, ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Xususan, yetti qaroqchi, yetti xazina, yetti iqlim, yetti mo'jiza, yetti go'zal, yetti falak, yetti ota-bobo, yetti pusht, yetti ajdod, yetti donishmand iboralari tarkibidagi raqamlar o'zgartirilsa, bu tushunchalarning mazmuniga putur yetadi. Shuning uchun ham asrlar davomida xalq og'zaki ijodiyotida, marosim va udumlarda bu raqamga an'anaviy tarzda murojaat qilinavergan. Topishmoq aytishganda piyozning po'sti aynan yettita emas, ancha-muncha ko'pligini ko'ra-bila turib, “pak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor” jumbog'ini keltirishimizning boisi ham ana shunda.

Xo'sh, raqamlarning nima sehri borki, ularga bu qadar katta ahamiyat beriladi? Ma'lum bo'lishicha, qadim zamonlardan beri odamlar turmushda ayrim raqamlarni qo'llashda turg'un an'analarni yarataganlar. Ajdodlarimiz dastlabki raqamni o'ylab topgan kundan tortib sanoq usullari takomillashib ketgan bizning davrimizgacha o'tgan vaqt ichida raqamlar haqida xilma-xil tasavvurlar paydo bo'lgan, qanchadan-qancha afsona-yu hikoyatlar yaratilgan. Bobolarimiz tafakkurining eng buyuk kashfiyotlaridan biri bo'lgan o'nlik sanoq usuli qadimgi odam uchun eng aziz va mo'tabar hodisa hisoblangan. Hozir hatto boshlang'ich sinf o'quvchisi birpasda aytib beradigan o'nta raqamning paydo bo'lishi uchun esa

aslida juda uzoq vaqt zarur bo'lgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, birdan o'ngacha bo'lgan raqamlar haqidagi qadimiy tasavvurlar xalqimiz xotirasida uzoq vaqtlardan buyon saqlanib qolgan. Keyinchalik xalq ijodiyotida, kundalik turmushda qo'llaniladigan an'anaviy raqamlar paydo bo'ldi. Bu g'aroyib xususiyatli raqamlar jahonning barcha xalqlari folklorida mavjud bo'lib, ular "sehrli raqamlar" deyiladi. O'zbek xalq og'zaki ijodiyotida o'ziga xos an'anaviy badiiy silsila sifatida qo'llaniladigan uch, to'rt, besh, yetti, to'qqiz va qirq raqamlari ana shunday tafakkur mo'jizalari hisoblanadi².

O'tgan asrdan boshlab ayrim olimlar xalq og'zaki ijodiyotida, kundalik turmushdagi marosim va udumlarda ba'zi raqamlarga alohida e'tibor berilishini qayd qilib, bunday "g'aroyib" sonlarga e'tiqod qo'yish an'anasining paydo bo'lish sabablarini aniqlashga harakat qilishgan bo'lsa-da, "sirli" raqamlar muammosi folklorshunoslik ilmidagi haligacha maxsus talqin qilinganicha yo'q. Sayyoramizning turli joylarida istiqomat qilgan va qadimiy ajdodlarining mifologik qarashlarini ko'proq saqlab qolgan elatlar hayotini sinchiklab o'rgangan E. B. Taylor, L. Levi-Bryul, E. Leffler kabi etnograflar ibtidoiy sanoq usullarining paydo bo'lishi natijasida ayrim sonlar bilan bog'liq e'tiqodiy ishonchlar kelib chiqqanligini alohida ta'kidlashgan. A. V. Vasilyev, D. O. Shepping, I. I. Chistyakovlar "sehrli raqamlar" bilan aloqador xurofiy tushunchalarning ilmiy mohiyatini yoritib berishgan bo'lsa, Yu. M. Lotman, A. Ya. Sirkin, V. N. Toporov, V. V. Ivanov, B. L. Ogibenin, A. I. Borodin, M. L. Chlenov kabi olimlarning tadqiqotlarida ham "g'aroyib" sonlar haqidagi qiziqarli ma'lumotlar mavjud³.

² Jo'rayev M. O'zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar. Toshkent. 1991. 12-15 betlar.

³ Toporov B. H. К семантике троичности. Москва. 1979; Borodin A. И. Число и мистика. Донецк. 1975; Членов М. Л. Числовая символика и тайные союзы на Молуккских островах. Москва. 1979.

Raqamlarning lingvopoetik xususiyatlarini o'rgangan olimlar maqol, xalq qo'shiqlari va eposda qo'llaniluvchi ayrim sonlar "sakral ma'no" anglatishini alohida qayd qilganlar⁴.

Raqamlarni folklor elementi sifatida o'rganishga kirishgan ilk tadqiqotchisi bolgariyalik Z. P. Ivanovadir. Uning 1921-yilda e'lon qilingan maqolasida bolgar xalq lirik qo'shiqlaridagi "tipik raqamlar" tahlil etilgan. Ammo bu asar asosan raqamlar qo'llanilgan qo'shiqlar bayonidan iborat bo'lib, "sehrli sonlar"ning paydo bo'lishi, turlari, funksional-semantik xususiyatlari haqida ma'lumot berilmagan.

O'zbek folklorshunosi G'. Jahongirov bolalar folkloridagi sanamalarda turli xil an'anaviy raqamlarning qo'llanilish sabablariga to'xtalib: "O'rta Osiyo hududida yashagan xalqlarning tarixida ham har xil e'tiqodlari bilan bog'langan sirli raqam, sonlari bo'lgan. Bularning o'zbek ertaklari, dostonlarida, maqol va rivoyatlarida ham izlari ko'p. Ammo o'yin vaqtlarida uchragan raqamlar sirli raqamlar ma'nosida ishlatilmay, ko'pincha sanoq so'zlarida qofiyalar talabi bilan ishlatiladi⁵", deb yozgan edi. Olim bolalar o'yinlarida qo'llaniluvchi raqamlar muayyan poetik qonuniyatlarga bo'ysunishini to'g'ri ko'rsatgan.

Ertakshunos K. Imomov o'zbek xalq prozasidagi "an'anaviy uchliklar – uch yo'l, uch aka-uka, uch ot, uch kecha-kunduz – syujet harakatining bir qolipda sekin davom etishini ta'minlaydi⁶", - deya magik raqamlarning mohiyatini umuman to'g'ri baholaydi.

Ko'rinib turibdiki, "sehrli raqamlar" alohida badiiy hodisa sifatida o'rganilmagan. Shuning uchun ham mening fikrimcha, bunday raqamlar haqidagi xalq qarashlarining paydo bo'lishi ibtidoiy marosim va udumlarda raqam ramzlari tarzida qo'llanilishi, raqamlarning mifologik tushuncha anglatuvchi belgidan folklor asarlaridagi badiiy unsurga aylanishini kengroq tadqiq qilish, o'zbek

⁴ Давидова О. А. Числительные в русских пословицах и поговорках. Курск. 1978. с. 15-26; Хроленко А. Т. Поэтическая фразеология русской народной лирической песни. Воронеж. 1981. с. 130-137.

⁵ Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. Toshkent. 1976. 99-bet.

⁶ O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent. 1980. 140-141 betlar.

folklorida “sehrli raqamlar”ning o’ziga xos poetik sistemasi mavjudligini asoslash zarurdir.

Xalq ijodiyoti asarlarida qo’llaniluvchi “sehrli raqamlar”ning muayyan mifologik asosi bor. Ajdodlarimiz sanashni kashf etgan qadim zamonlarda ayrim raqamlarning ilohiylashtirilishidan “sehrli raqamlar” to’g’risidagi tasavvurlar kelib chiqqan. Mifologik qarashlarning marosim va folklorga singib ketishi natijasida sonlar haqidagi e’tiqodlar ham yangilanib, o’zgarib boravergan. “Sehrli raqamlar” folklor matnlariga shunchalik o’rnashib qolganki, odatda an’anaviy tarzda asrlar bo’yi qo’llanib kelgan raqamlardan birortasi o’zgartirilsa, o’sha asar badiiyatiga putur yetadi. Zero, “sehrli raqamlar”ning xalq og’zaki ijodi poetikasidagi o’rni va vazifalarini o’rganish folklorshunoslikning umumnazariy masalalaridan biridir. Chunki jahon xalqlarining deyarli barchasida aynan bir xil (3, 4, 5, 7, 40) “sehrli raqamlar” qo’llaniladi. O’zbek folkloridagi “sehrli raqamlar” bilan bog’liq e’tiqodlarning tarixiy asoslari va folklor asarlarida turg’unlanish jarayoni hamda bunday raqamlar ishtirokidagi badiiy formulalar semantikasini o’rganish, nazarimda quyidagi masalarni o’z ichiga oladi:

- folklor asarlarida qo’llaniladigan an’anaviy raqamlarning umumiy va o’ziga xos badiiy xususiyatlarini aniqlash;
- “sehrli raqamlar”ning tarixiy asoslarini mif-marosim-folklor bosqichlarida tekshirish;
- “sehrli raqamlar” haqidagi ilk tasavvurlar asosida shakllangan mifologik ishonchlarning mohiyatini o’rganish;
- “sehrli raqamlar”ning folklor va marosimlarning badiiy strukturasiidagi o’rni hamda vazifalarini tadqiq etish.

Folklorshunoslikka oid tadqiqotlarda tarixiy-mifologik asoslari va badiiy funksiyalari bilan farq qiluvchi raqamlar umumiy atama bilan atalishi to’g’ri emas. Xalq og’zaki ijodida qo’llaniluvchi raqamlar o’ziga xos xususiyatlariga ko’ra farqlanib turadi. Ayrim sonlar urf-odat va marosimlarimizdan tortib folklorgacha “o’ziniki” qilib olganga o’xshaydi. Hatto jonli so’zlashuvda ham ba’zi raqamlar bot-bot qo’llanilishi sir emas. Xalqimizning ana shunday “ardoqli” sonlaridan biri

– yettidir. O'zbek folklorida yetti soni bilan bog'liq an'analar, tushunchalar juda ko'p. Xususan, “yetti xazina” haqidagi xalq qarashlari ham ana shu “sehrli” sonning sirli tarixi bilan bog'liq.

Taniqli qozoq tilshunosi S. Kenesboyevning yozishicha, ovchilikka, qush solishga ustasi farang qozoq merganlari itni yetti xazinaning boshi deb hisoblaydilar. Ular turmushda keng qo'llaniladigan narsa, hunar, jonivorlarning nomlarini yetti xazina sifatida tilga oladilar.

Xo'sh, “yetti xazina” haqidagi tasavvurlar qachon paydo bo'lgan.? Tarixiy-badiiy asarlarning guvohlik berishicha, yetti xazina tushunchasi O'rta Osiyo xalqlariga juda qadim zamonlardan beri ma'lum bo'lgan. Xususan, qadimgi hind dostoni “Axtarveda”ning Vishnu va Agni nomli afsonaviy qahramonlarga bag'ishlangan qismida “yetti xazina” iborasi ishlatilgan. Unda har bir xonadon oilaning baxt-iqboli ramzi bo'lmish yetti xazinaga ega bo'lishiga istak bildiriladi. Qizig'i shundaki, “veda”da yetti xazinaning mukammal tarkibi ayon etilmasa-da, ro'zg'orda eng ko'p qo'llaniladigan zaruriy xazinalardan biri sifatida moy nomi tilga olinadi.

Demak, insonning kundalik turmushi uchun zarur bo'lgan narsa va hodisalarini “yetti xazina” tarzida umumlashtirish an'anasi Sharq xalqlari ajdodlarining ibtidoiy tasavvurlari mahsulidir. Zero, o'zbek xalq dostonlarida, ertak va afsonalarida “yetti xazina” iborasi ko'p qo'llaniladi. Masalan, “Gulpari” to'plamiga kiruvchi “Malikai Jahon” ertagida shohning go'zal qizi otasining yetti xazinasini faxri bo'lmish qimmatbaho sehrli toshni olsa, “Hasan bilan Fotima” ertagida qabih niyatli boyvachchalar o'zlari yollagan jodugarga yetti xazinaning yarmini hadya etishadi. Yetti xazina tushunchasi Sharq xalqlari folklorida an'anaviy obraz sifatida keng tarqalgan.

O'zbek folklorida voqea-hodisalarni, qahramonlar xususiyati yoki biror belgisini bo'rttirib, kuchaytirib, mubolag'ali tasvirlashda ham an'anaviy raqamlardan keng foydalaniladi. Odatda, bo'rttirib tasvirlash usulida yuz, ming, o'n ming, o'n sakkiz ming, qirq ming, yetmish ming, to'qson ming, yuz ming, yetti yuz ming kabi “ulkan” sonlar ishlatiladi. Badiiy matnda uchraydigan bunday

raqamlar aniq matematik miqdorni anglatmaydi., balki mubolag'ali qilib tasvirlanayotgan narsa yoki hodisaning miqdoriy belgisini o'ta kuchaytirib, mavhumlashtirib ko'rsatadi va "ko'p", "juda ko'p", "son-sanoqsiz" degan ma'noni anglatadi.

O'zbek xalq ertaklarida epik masofa (qirq yillik yo'l, ming yillik yo'l), epik vaqt (ming yil yashamoq, 997 yil kutmoq), epik makon (o'n sakkiz ming olam, 786 bozor), lashkar soni (18000, 30000, 100000, 700000 lashkar), boylik (o'n sakkiz xazina, qirq ming tilla tuhfa)ni bo'rttirib ifodalashda ham an'anaviy raqamlar qo'llaniladi. Bunday miqdoriy kuchaytirishlar badiiy tasvirning ta'sirchanligini oshiradi. Raqamli mubolag'alarni ba'zan tasavvur qilish mumkin bo'lsa-da (masalan, 99 ism yoki 500 yigit), odatda, xalq og'zaki ijodiyotida inson qalbiga, tasavvuriga sig'dirish qiyin bo'lgan miqdoriy belgilar (o'n ming yillik yo'l, o'n sakkiz ming olam) qo'llaniladi.

O'zbek folklorida o'ziga xos badiiy formaga ega bo'lgan raqamli poetik formulalardan yana biri alliteratsiya san'atida ko'zga tashlanadi. "sanamay sakkiz dema, o'ylamay o'ttiz dema" yoki "o'nta bo'lsa o'rni boshqa, qirqta bo'lsa qiligi boshqa" kabi maqollardagi 8, 10, 30, 40 raqamlari muayyan so'zlar bilan fonetik jihatdan mutanosibligiga ko'ra qo'llanyapti. Ba'zan raqamli mubolag'a ham alliteratsiya yordamida ifodalanishi mumkin. "Avazxon" dostonining muqaddimasida Chambil shunday tasvirlanadi: "Chambil Chambil bo'lganda, Chambil obod bo'lganda, qirq yigitning yegani qand bilan novvot bo'lganda qanday Chambil edi: oltmish oshxonali Chambil, yetmish jevaxonali Chambil, sakson sardobali Chambil, to'qson to'yxonali Chambil, oq darvozali va ko'k darvozali Chambil, yer yuziga ovoza Chambil"⁷.

O'zbek folklorida qo'llaniluvchi raqamlarning o'ziga xos badiiy olamini yaxshiroq tushunish uchun raqamli jumboqlar asosiga qurilgan ertak motivlariga bir nazar tashlaylik.

O'zbek xalq ertaklarida raqamli jumboqlarning xilma-xil turlari mavjud. Qahramon tomonidan aytilayotgan sirli jumboqdagi raqamlar tilsimini yechish

⁷ Avazxon. Toshkent. Fan. 1985, 13-bet.

o'ziga xos zakovat imtihoni sanaladi. "Sultonshoh degan podshoh umrining oxirida Huroyim degan qizga uylanmoqchi bo'ladi. Sultonshoh Huroyimga sovchi yuboribdi. Xuroyim qaliniga:

O'nta uloq,
Yigirmata bo'ri
O'ttizta yo'lbars,
Qirqta tulki,
Ellikta no'xta,
Oltmishta axta,
Yetmishta sarg'aldoq,
Saksonta chaqaloq,
To'qsonta tumaloq,
Yuzta jumaloq, -

bersin deydi.

Bu topishmoqning javobi quyidagicha:

O'nda uloqday bo'ladi,
Yigirmada bo'riday bo'ladi,
O'ttizda yo'lbarsday bo'ladi,
Qirqda tulkiday bo'ladi,
Ellkikda no'xtalangan, otday aqli raso bo'ladi,
Oltmishda axtalangan otday qaytib qoladi.
Yetmishda sarg'aldoqday tilda boru dilda hech narsa bo'lmaydi,
Saksonda go'dak boladay bo'ladi,
To'qsonda uydan chiqmay dumaloq bo'ladi,
Yuzda beriligidan nariligi o'ng'ayliroq bo'lib qoladi.

Sultonshoh Huroyimning so'rog'iga javob bergandan keyin unga uylanadi. Huroyim Rustam degan o'g'il tug'adi⁸".

O'zbek xalq ertaklarida o'nliklarga asoslangan raqam jumbog'ining paydo bo'lishi qadimgi turk folklori an'analari va ibtidoiy sanoq usullari bilan bog'liq. Ma'lumki, rivojlangan sanoq sistemasi o'nlikka asoslanadi, bu aslida beshlik, ya'ni barmoqlar vositasida sanashning paydo bo'lishi bilan bog'liq. E'tibor berilsa, o'nlik sanoq sistemasidagi raqamlar tartibi (1,2,3,4,5,6,7,8,9,10) yuqoridagi

⁸ Topishmoqlar. Toshkent. 1983. 186-187 betlar.

raqamli jumboqning kompozitsion strukturasi to'la mos keladi (10, 20, 30, 40, 50, 60, 70, 80, 90, 100).

Xalq og'zaki ijodiyotida qo'llaniluvchi raqamlarni ularning tarixiy asoslari, badiiy strukturadagi o'rni va vazifalari, o'ziga xos poetik tabiatiga ko'ra ikkiga ajratiladi:

- 1) "sehrli" raqamlar;
- 2) an'anaviy raqamlar.

Insoniyat tafakkuri taraqqiyotining tetapoya davrlaridagi ibtidoiy marosimlar va mifologik tushunchalarning miqdor ko'rsatkichi sifatida shakllangan hamda xalq qarashlarida muqaddas hodisa sifatida tilsimlashtirilgan sonlar "sehrli" raqamlar deyiladi. Xalqimiz tasavvurida, marosim va udumlarda muqaddaslashtirilgan, ayrim tushunchalar tarkibida turg'un miqdor belgisi tarzida an'anaviylashgan 3, 4, 5, 7, 9 va 40 sonlari o'zbek folklorining "sehrli" yoki magik raqamlari hisoblanadi. Folklor asarlarida, an'ana va marosimlarimizda qo'llaniluvchi turli xil ibora va tushunchalar, e'tiqodiy ishonch va udumlar tarzida hamda odamlar nazarida alohida magik qudratga ega deb tasavvur qilingan "sehrli" raqamlar folklorda ham, marosimlarda ham baravar ishlatiladi.

Faqat folklor asarlaridagina qo'llaniluvchi qadimiy mifologik tasavvurlar bilan aloqador bo'lmagan raqam ramzlarini esa an'anaviy sonlar deb atashni lozim topdik.

Xo'sh, "sehrli" raqam tushunchasining ma'nosi nima va u qayerdan paydo bo'lgan?

Qadimgi samo yoritgichlarining sistemali harakatini, yomg'ir, qor, shamol, olov, yer qimirlashlari kabi tabiat hodisalarining asosiy sababini bilmagan. Shu bois ajdodlarimiz tashqi olamning xilma-xil mo'jizalari sirini bilishga doim intilib kelgan. Tabiat hodisalari oldida ojiz bo'lgan qadimgi odam tashqi olamda inson zakovatiga bo'ysunmaydigan g'ayrioddiy kuchlar bor, binobarin, sehr-jodu yo'li bilan ularga ta'sir etish mumkin deb o'ylagan. Shu tariqa sehr-jodu qudratiga ishonishga asoslangan magik marosimlar majmuasi, ya'ni diniy-mifologik tasavvurlarning qadimiy shakllaridan biri – magiya paydo bo'lgan.

Magik marosimlar soʻz yoki harakatning tabiat hodisalarida, inson yoki muayyan predmatlarga gʻayritabiiy taʼsir eta olish qudratiga ishonishga asoslangan. Masalan, badik, kinna kabi marosim folklor janrlarida soʻzning magik qudrati yovuz kuchlarni haydashga qaratiladi⁹. Xoʻsh, raqam sehri yoki magiyasi niimadan iborat? U nimani rad qiladi-yu, nimani tasdiqlaydi? Yetti moʻjiza, uch yoʻl, qirq quloqli qozon, qirq yigit, qirq qiz tushunchalari tarkibidagi raqamlarning qanday sehri borki, folklor asarlarida, kundalik turmushda ularga qayta-qayta murojaat qilinaveradi. Hozirgi paytga kelib xalq orasida 3, 4, 5, 7, 9, 40 kabi raqamlarga alohida ahamiyat berish anʼanasi saqlanib qolganligi koʻrinadi.

“Sehrli” raqamlar haqida fikr bildirgan olimlar ayrim raqamlarga alohida ahamiyat berish, eʼtiqod qoʻyish anʼanasining tarixiy asoslari masalasini yetarli yoritishmagan.

S. A. Tokarev magik inonchlarning hozirgi davrlargacha saqlangan qoldiqlari sifatida “baxtli va baxtsiz kunlar”ga, xosiyatli va bexosiyat sonlarga ishonish, yetti yil mehr-oqibatdan mahrum boʻlib qolishdan choʻchib, stol burchagiga oʻtirmaslik irimi, “baxtsiz” raqamlar va kunlardan qochish udumlarini ham tilga oladi.

Demak, raqamlar inson taqdiriga, hayotida qandaydir gʻayritabiiy yoʻsinda taʼsir etadi, turmushda omadli yoki omadsiz hodisalar roʻy berishida ayrim sonlarning ham maʼlum roli bor degan xurofiy tushunchalar, irim-sirimlar uzoq vaqt xalq orasida yashab kelgan.

Fikrimizcha, ayrim raqamlar sehrgarlikka asoslangan magik marosimlarning doimiy komponenti sifatida qoʻllanilgan. Marosim tarkibidagi har bir harakat yoki soʻz maʼlum funktsiya bajargani kabi, magiyada qoʻllanilgan raqamlar ham shunchaki tasodif boʻlmay, muayyan maqsadga qaratilgan boʻladi. “Sehrli” raqamlarning funktsiyasi magik marosimning yoki eʼtiqodning umumiy maqsadiga boʻysunadi.

Demak, raqamlarga sigʻinish – qadimgi odamning sonlar haqidagi gʻayriilmiy tasavvurlari asosida shakllangan. Tabiat sirlaridan voqif boʻlmagan

⁹ Sarimsoqov B. Oʻzbek marosim folklori. Toshkent, 1986, 143-bet.

ibtidoiy odam, tashqi olamning mo'jizalari sababini bilishga doim intilib keladi. U olamda, tabiatda inson faoliyatiga, taqdiriga sirli yo'sinda ta'sir eta oladigan mo'jizakor kuch bor deb hisoblagan goh u ezgulik, goh yovuzlik alomati tarzida tasavvur qilingan bu g'ayrioddiy kuch ibtidoiy dinning ilk shakllaridan biri magiyaning turli ko'rinishlaridan iborat bo'lgan.

1 - bob. Ertaklarda “sehrli” raqamlar.

1.1. O‘zbek xalq ertaklaridagi an‘anaviy uchliklar.

Xalqimizning qadimiy udumlariga ahamiyat bersak, “yer qoidasi uch, uchdan keyin puch”. “oting bir qoqilmasin, bir qoqilsa uch martagacha boradi” degan iboralarni uchratamiz. Ilgarilari nikoh to‘ylarida kelin-kuyov gulxan atrofida uch marta aylantirilardi. Turmushda uchlik o‘ziga xos “qoida”ga aylanib qolgandek ko‘rinadi, undan hatto hozir ham foydalaniladi. Masalan, qo‘lni uch marta yuvish, choyni uch marta qaytarish.

Respublikamizning geografik xaritasiga nazar tashlasak, Uchquduq, Uchqo‘rg‘on, Uchtegirmon, Uchqir, Uchtom, Uchuy kabi joy nomlari ko‘pligiga amin bo‘lamiz. Buning ustiga “Uch og‘ayni botirlar”, “Uch o‘rtoq”, “Uch yolg‘ondan qirq yolg‘on”, “Uch nasihat” kabi ertaklarning nomlari ham ana shu “sehrli raqam” bilan aloqador. Shuningdek, o‘zbek xalq dostonlarini yoki ertaklarimizni varaqlasangiz, uch og‘a-ini botirlar, uch opa-singil, uch o‘rtoq, uch shart, uch yo‘l, uch to‘siq, uch savol, uch boshli ajdarho, uch sinov, uch kunlik muhlat, uch jang, uch vazifa, uch ko‘makchi, uch dev, uch ot kabi motiv va an‘analarda ham “uch” raqami ishtirok etganini ko‘ramiz.

Ertaklarimizda muayyan tilsim yoki sehrli qasrlar bilan bog‘liq uchliklar juda serob: uch marta ta‘zim qilish, uch marta salom berish, vafodor otning uch marta kishnashi, ga‘royib xislatli cholni uch marta chaqirish kabi motivlar uch marta takrorlanadi. Xususan, “Bulbuligo‘yo” ertagida tasvirlanishicha, shahzoda yog‘och otning qulog‘ini uch marta burab qo‘ysa, u sirli g‘orning og‘ziga borib qoladi. Yoki “Qorasochxon” ertagida malikaning kanizagi tepalik ortidagi katta gulning atrofini uch marta aylanib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. “Oltin baliq” ertagining qahramoni bilan xayrlashayotgan baliq qiyofasidagi sirli yigit suv ostiga tushayotib, “Mabodo kerak bo‘lib qolsam, ko‘k dengiz qirg‘og‘iga borib, uch marta chaqirsang, darhol xizmatingga hozir bo‘laman”, deydi.

“Uch” raqami o‘zbek xalq ertaklarining kompozitsiyasini belgilovchi muhim badiiy elementlardan biridir. Deylik, “Uch og‘ayni botirlar” ertagining strukturasi

an'anaviy uchlikka asoslangan. Cholning uch o'g'li, uch nasihat, uch kecha yo'l yurish, kechani uchga bo'lib poyloqchilik qilish, uch qiz, uch sinov kabi uchliklar ertakni boshdan-oyoq o'ziga bo'sundirib olgan. Shuning uchun an'anaviy uchlik ertak poetik strukturasi muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Taniqli folklorshunoslar A. I. Nikiforov va V. Y. Propp ham an'anaviy uchlikning sirini topish zarurligini qayd qiladilar¹⁰. E. B. Taylor, F. N. Bleker, A. I. Borodin, O. A. Davidova, A. T. Xrolenkolar qadimgi qabilalarda sanoq sistemasi uchta raqamdan iborat bo'lgan, uch oxirgi son vazifasini bajargan deb hisoblashadi¹¹. V. G. Bogorazning yozishicha, "Uchlik qadimgi sanoq sistemasining oxirgi va uni beshlik hisob-kitob usulidan ajratib turuvchi raqamdir. Unga alohida e'tiqod qo'yilishining boisi ham shunda".

A. I. Nikiforov, O. M. Kosven, V. Y. Propplar ham shu gipotezani quvvatlaydilar¹².

V. N. Anikin va K. Imomovlarning yozishlaricha, "Uch soni ibtidoiy odam xayolida baxtsizlik keltiradigan son sifatida o'rnashgan edi"¹³. Ammo ibtidoiy odamlar tasavvurida uch raqami baxtsizlik ramzi sifatida tushunilganligi biron-bir dalil bilan isbotlanmagan.

Qadimgi mifologik tasavvur va rituellar semantikasi tadqiqotchilarning fikricha, folklor hamda marosimlarda uch raqamiga alohida e'tibor berilishiga sabab, uch olamning vertikal tuzilishi, ya'ni kosmosning trixotomik strukturasi haqidagi qadimiy mifologik tasavvurlardir. V. V. Ivanov va V. N. Toporovlar qadimgi slavyanlarning diniy mifologik sistemasida uch raqamining semantik asosi olamining vertikaliga uchga bo'linishiga bog'liqligini isbotlab berishgan.

¹⁰ Пропп В. Я. Фольклор и действительность. Москва. 1976. С. 96.

¹¹ Борodin А. И. Число и мистика. Донецк. 1975. С. 91; Давидова О. А. Числительные в русских пословицах и поговорках. Курск. 1978; Хроленко А. Т. Поэтическая фразеология русской народной лирической песни. Воронеж. 1981. С. 130-131.

¹² Пропп В. Я. Фольклор и действительность. Москва. 1976. С. 96.

¹³ К. Imomov. O'zbek xalq prozasi. Toshkent. 1981. 20-bet.

Uch raqamining mifologik tasavvurlar bilan bog'liqligini kosmik modelning trixotomik strukturasi evolyutsiyasi misolida B. G. Ogibenin va N. L. Jukovskayalar ham isbotlashgan¹⁴. Ularning fikricha, folklor asarlari, mifologik va ritual tekstlardagi uchlik an'anasining asosi arxaik mifologiyada olamning vertikaliga uchga bo'linishi haqidagi tasavvurga bog'lanadi. Yer yuzidagi ko'pgina elatlar qachonlardir faqat uchgacha sanashni bilishgan, xolos.

Demak, uchlik sanoq sistemasi mif va folklorda, marosim va udumlarimizda uch raqamining semantik modellar sistemasi shakllanishiga ma'lum ta'sir o'tkazgan. Ammo ertaklardagi uchlik motivlarining poetik xususiyatlari bu "sehrli" raqam genezisi olamning trixotomik strukturasi bog'liqligini ko'rsatadi. O'zbek xalq ertaklaridagi uchlik bilan bog'liq motivlar genezisini o'rganish, bu raqam an'anasining asosini olamning mifologik qiyofasi haqidagi tasavvurlarga bog'laydi. An'anaviy uchlikning genezisi qadimgi odam dunyoqarashi bilan bog'liqligi ertaklarda keng tarqalgan an'anaviy uch yo'l motivi, uch boshli obrazlar va syujet elementlarining uch marta takrorlanishi kabi magik uchlik bilan bog'liq murakkab semantik konstruksiyalar tahlilida aniq ko'zga tashlanadi.

¹⁴ Жуковская Н. Л. Формы проявления культа природы в пантоне и ритуалах ламаизма. Религия и мифология народов Восточной и Южной Азии. Москва. 1980. С. 113.

1. 2. “To’rt” raqamining ertaklardagi badiiy funksiyasi.

Xalq an’analarida ko’p qo’llaniladigan “sehrli” raqamlardan biri “to’rt”dir. Ayniqsa, diniy aqidalarda “to’rt” soniga alohida e’tibor beriladi. Islom mifologiyasi ta’limotiga ko’ra, yetti osmon va yerni to’rt farishta to qiyomat qoyim bo’lguncha yelkasida ko’tarib turarmish.

Binobarin, islom ta’limotida Allohning maskani arshi-a’loning yaqinida turuvchi to’rt farishta talqini va tavsifiga keng o’rin berilgan. Ulardan birinchisi – Jabroil – ilohiy xabarni yetkazuvchi, ikkinchisi – Mikoyil, ya’ni koinotdagi tartibni nazorat qilib turuvchi, Isrofil – maxsus burg’uni chalib qiyomatdan darak beruvchi, to’rtinchisi esa Azroil – odamlarning jonini oluvchi farishtadir.

Hatto o’rta asrlar tabobatida ham to’rt raqami alohida mavqega ega bo’lgan. Qaimgi hind tabiblari odam organizmi yer, suv, havo, olov kabi unsur dan iborat deb bilishgan. To’rt unsur nazariyasiga asoslangan Ibn Sino ham inson organizmida aylanib yuruvchi to’rt suyuqlik – qon, safro, shilliq va qora o’t mavjud deb hisoblagan¹⁵. Ibn Sino odam tanasidagi suyuqliklarning munosabatiga ko’ra, inson organizmida bir-biriga o’zaro ta’sir etuvchi to’rt kuch, ya’ni mijoz mavjudligini aniqlagan. Sharq tabobatida mashhur bo’lgan issiqlik, sovuqlik, quruqlik va namlik mijozlari haqidagi qarashlar to’rtlik an’anasiga bog’liq.

Og’irini yengil qilib bergan kishini yaxshiligi evaziga keksalar “to’rt muchang sog’ bo’lsin!” deb alqaydilar. An’anaviy tasavvurlarga ko’ra, “to’rt mucha” odam organizmining a’zolaridir. Bunda organizmning eng zaruriy qismlari – qo’l, oyoq, ko’z va quloq omon bo’lishiga istak bildiriladi. Aslida, bu a’zolar o’rniga boshqasini qo’llayverish mumkin. “To’rt mucha” atamasi an’anaviy tarzda qo’llanaveradi.

Xalq og’zaki ijodida “to’rt tomon” hamma tomon, barcha mavjudlik ma’nolarini anglatadi. Qadimgi Misr ierogliflarida ba’zan “ko’p” degan tushuncha

¹⁵ Qodirov A. A. Soipov U. T. Abu Ali ibn Sino o’rta osiyolik buyuk medik – olim. Toshkent. 1980. 38-39 betlar.

to'rtta chiziq bilan belgilangan bo'lsa, qadimgi Sharqda "to'rt dengiz" degan ibora barcha dengizlar ma'nosini bildirgan.

O'zbek xalq folklorida keng qo'llanuvchi to'rt raqami dunyo tomonlari, qahramonlarning safari va uchlikning badiiy evolyutsiyasi sifatida uchraydi. To'rtning an'anaviylashish sirini olimlar turlicha izohlab kelishgan. S. P. Obnorskiy ibtidoiy sanoq sistemasida "to'rtlik" usuli mavjud bo'lgan deb hisoblaydi. Ma'lum bo'lishicha, qadimgi davrlarda dastlabki to'rtta raqamdan iborat sanoq usuli qo'llanilgan ekan. Bu usulga ko'ra, to'rt eng "katta" raqam, ya'ni sanoqning cheki hisoblangan. Hisoblanayotgan narsa va hodisalar soni to'rttadan oshib ketsa, qadimgi odam "ko'p" yoki "son-sanoqsiz" degan.

D. O. Sheppingning fikricha, to'rt - mavjud olam raqami, butun ibtidoning "yakuni"dir. A. I. Borodin qadimgi an'analardagi raqam belgilarini atroflicha o'rganib, quyidagicha xulosa chiqargan: "Shunday qilib, uch raqami singari asta-sekin to'rt raqami ajralib chiqib boshlaydi va dastlab ko'plikni anglatishga xizmat qiladi. Xususan, Misr petrogliflarida son jihatdan ko'p predmatlar uch yoki to'rt chiziq bilan belgilangan"¹⁶. Qozoq olimlari J. Boyzoqov bilan S. Qo'nonboyevlar fikricha, go'yoki to'rtning eng katta va ayni paytda eng kichik qo'shma son bo'lganligi bu raqamning magik xarakterini belgilaydi¹⁷. V. V. Ivanov, V. N. Toporov, A. Y. Sirkin, N. L. Jukovskaya, A. T. Xrolenko kabi tadqiqotchilar sakramental "to'rt" raqamiga aloqador an'analarni genezisini kosmik modelning gorizontal strukturasi bog'laydilar. Dunyoning to'rt tomonga ega ekanligi mifologik va etnografik materiallardagi to'rtlik – tetradaning asosidir¹⁸.

Ertaklardagi to'rt raqami dunyo tomonlarining ramzi bo'lib tasvirlanadi. "Erta bilan qaralar, saroyning to'rt tomonini to'rt ajdarho to'sib yotibdi"¹⁹,

¹⁶ Бородин А. И. Число и мистика. Донецк. 1975. С. 112

¹⁷ Bayzaqov J, Qonaqbayev S. jumbaq – sirli 4 sani // Ilim va Enbek. 1. 1979. 25-bet.

¹⁸ Жуковская Н. Л. Семантика чисел и калмыцком эпосе "Джангар". Москва. 1980. С. 209;

¹⁹ O'zbek xalq ertaklari. Toshkent, 1981, 174-bet.

“kaniz qizlar bog’ni tomosha qilgani to’rt tomonga tarqalib ketgan edi”²⁰, “Podsho ertasiga Ermana merganni qidirib, to’rt tomonga odam yuboribdi”²¹.

“Shahzoda va uning singlisi” ertagida to’rt ko’cha birlashgan joydagi chinor tasviri olamning gorizontal tuzilishi va hayot daraxtining badiiy ifodasidir. Shahzoda “falon yerdagi to’rt ko’chaning burchagida katta chinor tagiga borma” – deb singlisiga tayinlaydi. Singlisi esa tabuni buzib, ta’qiqlangan joyga borsa, chinor tagidagi quduqda dev yotgan emish. U devni qutqaradi, dev esa qizning boshiga tashvish soladi. Fikrimizcha, to’rt ko’cha olamning gorizontal – semantik tuzilishi ramzi, chinor – hayot daraxti, quduq – yer osti olamiga yo’l, dev – yer osti olamining vakilidir, demak, to’rt ko’cha – dunyo tomonlari ramzi.

O’zbek xalq ertaklarida tasvirlangan epik makon to’rt burchakli yoki to’rt tomonli strukturaga ega. Bu avvalo malikalar taxti, otxona va boshqa uylar tasvirida yaqqol ko’rinadi. “Bulbuligo’yo” ertagida kenja teshikdan boshini chiqarib qarasa, otxonaning to’rt burchagida to’rtta oltin qoziq. To’rtta oltin qoziqqa bog’loqliq ot turibdi²². Parilar mamlakatining tuzilishi ham to’rtga asoslangan: “Shahzoda qarasa, bir ajoyib bo’ston, bulbullar sayragan, anjir, shaftolilar pishib, yerga to’kilgan. Bo’stonning to’rt burchagida to’rt oltin taxt, zar ko’rpachalar solig’liq. To’rt tarafda qator hujralar”²³.

Xullas, o’zbek xalq ertaklaridagi to’rtlik an’anasi to’rtlik sanoq usuli va olamning gorizontal tuzilishi haqidagi qadimgi tasavvurlarga bog’lanadi. To’rt raqami ishtirok etan barcha poetik formulalar dunyo tomonlarining badiiy talqini vazifasini bajaradi.

²⁰ Gulpari. Namangan ertaklari. 1989, 91 bet.

²¹ Gulpari. Namangan ertaklari. 1989, 174-bet.

²² O’zbek xalq ertaklari. Toshkent, 1981, 47-bet.

²³ O’zbek xalq ertaklari. Toshkent, 1981, 50-bet.

1. 3. "Besh" raqami va barmoqlar vositasida sanash usuli.

O'zbek tilida "besh kunlik dunyo", "besh kunlik davron", "ajalidan besh kun burun o'lmoq", "besh kunligi bormi, yo'qmi", "oyning beshi qorong'u, beshi yorug'", "besh qo'l barobar emas" kabi ibora va aytimlar uchraydi. "Juda yaxshi bilmoq" ma'nosida "besh qo'lday", "besh barmoqday" jumlasida qo'llaniladi. Do'stlar hol-ahvol so'rashganda "ishlar qalay" degan savolga "besh" deb javob beradi. Bunday semantik birliklar tarkibidagi "besh" raqami qadimgi tasavvurlar bilan bog'liq.

Odamlar an'analarda besh raqamiga alohida e'tibor berilishining sababini ibtidoiy sanoq sistemasida barmoqlar bilan sanoq bosqichiga bog'laydilar.

Ibtidoiy odamning barmoqlar vositasida sanashni o'rganishi turmushda beshlik bilan bog'liq an'analarga katta ahamiyat berilishiga sabab bo'lgan bosqichidir. Mashhur sayyoh N.I. Mikluxo-Maklay Yangi Gvineyada yashovchi papuas qabilalarining urf-odatlarini, yashash tarzini o'rganayotib, g'oyat qiziqarli manzaraga duch kelgan. U kunlardan bir kun safardan qaytgan mahalliy ovchidan o'ljasining miqdori qanchaligini so'rganida "omadli" papuas o'ng qo'li yordamida chap qo'lining barmoqlarini chinchalog'idan boshlab bitta-bitta bukib, sanay boshlagan. Chap qo'l barmoqlari bari sanalib, hisob beshtaga yetgach, papuas "ibon-be", ya'ni "qo'l" degan. Keyin chap qo'li ko'magida o'ng qo'lining barmoqlarini sanab chiqib, "ibon-ali", ya'ni "ikkinchi qo'l" degan. Biroq bu miqdor hali papuas o'ljasining to'liq sonini ifodalashga kamlik qilardi. Shunda ovchi yerga o'tirib olib, oyoqlaridan birining barmoqlarini hafsala bilan sanashga tushadi. Ancha mashaqqatlardan so'ng, papuas "ibon-ali, samba-be", ya'ni "ikki qo'l va bir oyoq" o'lja bilan qaytganligini mamnuniyat bilan qayd qiladi²⁴.

Qadim zamonlarda besh qirrali predmetlar muqaddas hisoblangan.

Turk-mo'g'ul xalqlari besh raqamini omad, baxt ramzi deb bilganlar. Shu bois marosimlarda bu "xayrli" raqamni an'anaviy tarzda qo'llayverganlar.

²⁴ Бородин А. И. Число и мистика. Донецк. 1975. С. 95

“Besh” o‘zbek folklorining sehrli raqamlaridan biridir. Ertak va dostonlarda “besh” raqami ko‘pincha vaqt bilan bog‘liq “ajalidan besh kun burun o‘lmoq”, “besh kecha-kunduz jang qilmoq”, “besh kunga ruxsat so‘ramoq”, “besh kun davron surmoq” kabi iboralar tarkibida keng qo‘llanadi. Epik asarlardagi “besh kunlik dunyo” birikmasi “o‘tkinchi, qisqa vaqt” ma‘nolarini anglatadi. “Erali va Sherali” dostonida shunday misralar bor:

Kulbangizda besh kun o‘ynab-kulayin,

Besh kun dunyo o‘tarini bilayin.

Mazkur baytda qo‘llanilgan “besh” epik vaqt tushunchasini ifodalamoqda.

“Besh” raqami qahramonlar sonini bildiruvchi epik miqdor sifatida ertaklarning kompozitsion qurilishida ham muhim rol o‘ynaydi.

A. I. Nikiforovning yozishicha, chukotka xalq ertaklarining asosiy kompozitsion – konstruktiv prinsipi beshlikka asoslanar ekan. “Susambil” ertagida tasvirlanishicha, xo‘roz, eshak va ho‘kizning oldidan ikkita kalamush chiqibdi. Ular: “uchta edik, beshta bo‘ldik” deb yo‘lini davom ettirishibdi. Yo‘lda ularga yana bir to‘p asalari qo‘shilgandan so‘ng xo‘roz: “uchta edik, beshta bo‘ldik, beshta edik, ko‘p bo‘ldik”, - debdi. Fikrimizcha, ertakda qahramonlar sonining shakllanishi sanoq sistemasi taraqqiyotini eslatadi. Barmoqlarga asoslangan sistemada dastlab beshgacha sanashni bilgan qadimgi odam undan ortiq miqdorni “ko‘p” so‘zi bilan ifodalaganligini ko‘rish mumkin.

Bu “sehrli” raqam an‘anasi “Qoraqosh bilan Qorako‘z” ertagida ham sirli uylar eshiklarini ochish motiviga asos bo‘lgan. Devlardan qutulgan opa-singillar qirq uyning kalitini olib, birma-bir xonalarni ochib ko‘radilar. “Birinchiy uyni ochishlari bilanoq, qamalib yotgan bandilar “men oriq, bu semiz” deb shovqin ko‘tarishibdi. Opa-singillar bandilarni ozod qilishibdi. Uchinchi uyni ochsalar, xona to‘la ust-bosh, kiyim-kechak ekan. To‘rtinchi uyda oziq-ovqat, beshinchi uyda bo‘lsa, qurol-yarog‘ bor ekan. Eng oxirgi qirqinchi uyda ikki xum tilla – nuqra turganmish²⁵”. Opa-singillarning sirli xonalarni ochib ko‘rishlari “bir, ikki, uch, to‘rt, besh – qirq (ko‘p)” poetik sxemasiga asoslanadi.

²⁵ O‘zbek xalq ertaklari. Toshkent, 1981, 243-bet

Barmoqlar vositasida sanash usuliga qo'l barmoqlari soni – besh raqami asos bo'lgan. Beshtadan ko'p, ya'ni qo'l barmoqlari sonidan ortiq miqdorni ajdodlarimiz “ko'p” tushunchasi bilan ifodalashgan. Shu an'ana asosida xalq ertaklaridagi “”besh-ko'p” formulasi paydo bo'lgan.

“Besh” raqamining o'ziga xos badiiy xususiyatlaridan yana biri afsonaviy qahramonning “besh” shartni bajarishi motivida ko'za tashlanadi. “Handalak polvon” ertagida an'anaviy uch shart o'rnida besh shart motivi qayd qilinadi. Shoh qizi talabgorlar oldiga besh xil vazifa qo'yadi:

- 1) atrofini qirq kunda aylanib chiqish mumkin bo'lgan hovuzni ovqatga to'ldirishadi. Shuni bir kunda yeb bitirish:
- 2) olovda qizdirilgan uyda bir kecha yotib chiqish;
- 3) qirq qop bug'doy, qirq qop tariq sepib, shudgor qilingan yerdagi donni terib, qirq qopni to'latish:
- 4) katta temir kundani cho'p bolta bilan yorish:
- 5) daryodan suv olib kelishda Masturaxonning yugurdak kampiridan ilgari yetib kelish.

Sehrli ko'makchilar yordamida bu shartlarni bajargan qahramon malika visoliga yetishadi.

Shunday qilib, o'zbek xalq ertaklaridagi besh raqamining mifologik asosi ibtidoiy sanoq sistemasida barmoqlar yordamida sanashga o'tish bosqichi bilan bog'liq. Beshlik sanoq usuliga ko'ra yaratilgan vaqt (besh kunlik dunyo, besh kunlik muddat), rang (besh rang), tomon (shimol, janub, sharq, g'arb, markaz) tushunchalari predmetlar va obrazlar soni (besh shart, besh qahramon) badiiy zaminda turg'unlashib qolgan.

1. 4. “Yeti” raqami haqidagi xalq qarashlari va ertak poetikasi.

Alisherning “Xamsa”sida yetti iqlim yo’lchilari,
Yot ellarning bu darbadar bag’ri yoniq elchilari,
Yeti rangli koshonada yetti qissa aytgan edi,
Shaydo bo’lgan Bahrom shohni yetti beka kutgan edi.

Maqsud Shayxzoda

“Yeti” raqami bilan bog’liq xalq qarashlarini o’rganish qadimgi davrlarda yashagan bobolarimizning turmush tarzini, ma’naviy olamini, psixologiyasini, zakovat qudratini va fantaziyasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Diniy aqidalarga ishonuvchi ayrim kishilar suhbatiga quloq tutsangiz, “yetti falak”, “yetti qavat yer osti” kabi iboralarni ko’p eshitasiz. Islom aqidasi ko’ra, go’yo falak yetti qavatdan iborat emish, yettinchi qavatni o’rab turgan ummondan so’ng jannat boshlanar emish. Islom mifologiyasida yetti qavat falakka monand holda zamin ham yetti qavatga bo’linadi. Zaminning eng quyi, yettinchi qavatidan keyin jahannam boshlanarmish. “Jahannam” yoki do’zax ham yetti qavat bo’lib, har bir qavat orasidagi masofa bir yuz yigirma yillik yo’l emish. Jahannamning birinchi qavatida ikkiyuzlamachilar, ikkinchi qavatida Misr fir’avnlari, uchinchi qavatida kofirlar, to’rtinchi qavatida sehrarlar va folbinlar, beshinchi qavatida xristianlar, oltinchi qavatida olovga topinuvchilar joylasharmishlar. Eng so’nggi yettinchi qavatida esa Allohning din yo’lidan ozgan bandalari jahannam azobini tortisharmish.

“Yeti falak” tushunchasi aslida qadimgi ajdodlarimizning islom ta’limoti paydo bo’lishidan ancha burunroq shakllangan ibtidoiy tasavvurlari bilan bog’liq bo’lib, bevosita 7 raqami haqidagi qadimiy mifologik qarashlar ta’sirida yaratilgan. Hozirgi ilmiy-texnika sohasida erishilgan yutuqlardan ma’lumki, olam cheksizdir. Kosmosni zabt etgan kosmonavtlar olamning cheki yo’qligini, hali biz bilmagan, ilmiy jihatdan o’rganilmagan sayyoralar, kosmik kengliklar, samoviy jismlar juda ko’pligini aniqlashgan. Osmon “yetti qavat falak” bo’lmasdan, yer shari atrofini

o'rab turgan obyektiv reallik – atmosfera, qolaversa, cheksiz koinotdir. Osmon – nihoyasiz koinotning biz ko'rib turgan qismi, xolos.

Yetti falak va sakkiz qavat jannat haqidagi afsonalar hamda e'tiqodiy qarashlar xalq og'zaki ijodiyotida saqlanib qolgan. Ko'rinib turibdiki, islom mifologiyasi olamning afsonaviy qiyofasini tasvirlashda an'anaviy “yetti” raqamidan foydalangan²⁶.

O'zbek xalq og'zaki ijodiyotida, jonli so'zlashuvda, madaniyat va san'at yodgorliklarida “yetti” raqamiga shu qadar katta ahamiyat berilganki, bu an'ana xalqimizning juda qadimiy tasavvurlari va e'tiqodlari bilan bog'liqdir. Binobarin , bu g'aroyib raqam bilan aloqador tushuncha va iboralarning haqiqiy mohiyatini to'g'ri tushunish xalqimiz ma'naviy merosining mo'jizalari sirini yaxshiroq anglashga yordam beradi.

“Yetti yo'l” tushunchasi turkiy xalqlar folklorida tez-tez ko'zga tashlanib turadi. Agar keksalar nutqiga e'tibor bersangiz, boshi gangigan, kalavaning uchini yo'qotgan odam haqida “yetti yo'lning boshida turgan” iborasi qo'llanganini ko'rasiz. “Yetti yo'l” o'zbek xalq marosim folklorida ham qayd qilingan. Folklorshunos, B. Sarimsoqovning fikricha, qadimda xalqimiz tasavvuriga ko'ra yetti yo'l yoki yetti ko'cha birlashgan joydan olingan tuproq magik qudratga ega, ya'ni muqaddas deb qaralgan.

Xalq og'zaki ijodiyotida, mumtoz adabiyotimizda madh etilgan parilar soni nega endi aynan yettita? Jahonning turli joylarida yashagan elatlar folklorida yetti sohibjamol qiz haqida xilma-xil afsonalar mavjud. Quyida Sharq adabiyotida qadimdan mashhur o'lgan “haft paykar” yoki “yetti go'zal” obrazining paydo bo'lishi va mohiyati to'g'risida hikoya qilinadi.

So'lim bog'lar qo'ynidagi kichkina qishloqda yetti nafar sohibjamol qiz yashagan ekan. Go'zallar husnining ovozasi el orasida doston bo'libdi. Bundan xabar topgan zolim xon odobli va chiroyli qizlarga uylanish harakatiga tushibdi. Go'zallar fosiq xonning taklifiga qat'iy rad javob beribdilar. G'azablangan xon o'z istagini zo'rlik yo'li bilan amalga oshirmoqchi bo'libdi va qizlarni tutib, haramga

²⁶ Jo'rayev M., Xolmuhammadov K. Yetti iqlimdagi “yetti”lar. Toshkent. 1989. 33-55 betlar.

keltirishni amr etibdi. Xon sarbozlari qishloqqa bostirib kirishibdi. Xonning qabih niyatidan bexabar, odatdagiday bog' sayriga chiqqan qizlarning biri arg'amchi uchsa, boshqasi gul terar, yana biri bog'dagi bulbullar nag'masiga jo'r bo'lib qo'shiq aytayotgan ekan. Shu payt qiy-chuv ko'tarilib, yov bostirib kela boshlaydi. Xon malaylari och bo'riday yopirilayotganini ko'rgan qizlar shohona saroyga umrbod bandi bo'lgandan ko'ra poklikni afzal bilib, tangriga iltijo qilibdilar. Shunda kuchli dovul ko'tarilib, hamma narsa – go'zal bog'u pari qizlar – bari birdan g'oyib bo'lgan emish. Yashnagan bog' o'rnida yetti tup yulg'un o'simligi paydo bo'libdi.

Xorazm viloyatining Xazorasp tumanida “Yetti qiz” deb ataluvchi joy bor. Shu joy haqidagi ushbu afsonani xorazmlik havaskor folklor to'plovchi N. Saburov yozib olib, H. Zaripov nomidagi o'zbek folklori arxiviga topshirgan. Afsonada zolim xon sarbozlaridan qochib, yer ostiga kirib ketgan yetti qizning zaminda qolgan sumbul sochlari yetti tup yulg'unga aylangan deb talqin qilinadi. Aslida “Yetti qiz” deb ataluvchi bu kichik to'qayzordagi yulg'unlar soni aynan yettita emas. Xorazmlik so'z ustalari xalqimizning qadimiy rivoyatlarida tasvirlangan yetti qiz asosida bu joy nomi haqida yangi afsona yaratishgan, xolos. Hozirda o'zlashtirilib, bog'ga aylantirilgan bu joydagi to'qayzorning “Yetti qiz” deb atalishi afsonaviy tasavvurlar mahsulidir. Xalqimiz poklik, go'zallikni qadrlash g'oyasini “Yetti qiz” afsonasiga singdirib yuborgan.

Xalq og'zaki ijodiyotida yetti qiz, yetti ayol, yetti opa-singil, yetti momo kabi obrazlar juda ko'p uchraydi. “Qiron aka” nomli o'zbek xalq ertagida tasvirlanishicha, tog' etagida yetti opa-singil yashashar ekan. O'g'irlangan parini izlab safarga chiqqan qahramon yetti qizning uyiga birma-bir kirib, kaptarga aylanib uchib ketgan devlarning daragini so'raydi. Garchi yetti qiz devlarning manzili qayerdaligini aniq ko'rsatib berishmasa-da, ular Qiron aka sarguzashtlari yo'nalishini belgila berishadi.

Hatto topishmoqlarda ham “yetti qiz” obrazi yashirilayotgan predmetning belgisi sifatida qo'llanadi:

Cho'pchagim – cho'pchak
Oltin belanchak,
Yetti qizning onasi,
Haligacha kelinchak.

Bu jumboqning javobi “qo'g'irchoq” ekanligini allaqachon payqagan bo'lsangiz kerak. Qizaloqlar cho'p boshiga “ro'mol” o'rab, turli-tuman mato parchalaridan libos kiygizib, bezab qo'yadigan bejirim “kelinchak”lar sirayam qarimaydi-da. Murg'ak qalbiddek musaffo xayollarda mangu yoshlik timsoli bo'lmish “kelinchak”ning yetti qizi xalqimizning afsonaviy qarashlari mahsuli bo'lgan badiiy obrazdir.

“Yetti qiz” haqidagi xalq qarashlari nihoyatda qiziqarlidir. Hatto xorazmlik tarixnavis Abulg'ozzi Bahodirxonning “Shajarai tarokima”, ya'ni “Turkmanlar shajarasi” nomli asarida “Turkmanlar tarixini ilaturg'on yaxshilari va baxshilari aytib tururlarkim, yetti qiz barcha o'g'uz elini ozgina boqindurib, ko'p yillar bekalik qildilar”, - deb yozilgan. Qadimgi Amu sohillarida yaratilgan afsonalarda yetti o'g'uz malikasi – Oltin go'zal, Barchin Salor (“Alpomish” dostonidagi obrazlardan biri), Shaboti, Ko'nin ko'rkli (Biyokon alpning xotini), Ko'nin ko'rkli (Qo'qon alpning xotini), Kercha va Ko'gadlilarning nomi tildan tushmagan. Xorazmlik baxshilar bu yetti malika haqidagi xalq qo'shiqlarini, afsonalarini juda yaxshi bilganlar va tarixnavislar u haqida ma'lumot berganlar. Asrlar bo'yi el orasida keng yoyilgan yetti malika haqidagi epik syujet Xazoraspdagi “Yetti qiz” degan joy to'g'risidagi afsonaning yaratilishiga ham turtki bo'lgan.

Yetti iqlim go'zallari.

Uzoq davrlar davomida xalq og'zaki ijodiyotida madh etilgan yetti go'zal obrazi Sharq mumtoz adabiyotida, ayniqsa, kamolot cho'qqisiga yetishdi. Yetti sahibjamol qiz obrazi mashhur ozarbayjon shoiri Nizomiyning “Haft paykar” (“Yetti go'zal”) dostonidan keyin xamsachilikning sevimli poetik obrazlaridan biriga aylanib qoldi. Ozar xalqining folklori va Firdavsiy an'analari asosida yaratilgan bu doston Bahrom haqidagi qoliplovchi hikoyadan tashqari, yetti go'zal hamda yetti mahbus sarguzashtlari bayonidan iboratdir.

Shundan so'ng yetti go'zal mavzusida qalam tebratgan orzumand shoirlarning safi kengaydi. Hind xalqining qadimiy afsonalarini to'plagan Dehlaviy o'zining "Hasht behisht" ("Sakkiz jannat") dostonida yetti malika haqida tamomila yangi hikoyalarni yaratgan. Dehlaviydan keyin yetti go'zal haqida yirik doston yozgan shoir Ashrafdir. Ammo "Haft paykar" nomli bu asar haligacha topilgan emas.

Zero, ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida "Sab'ai sayyor"ning yozilishi haqida to'xtalib. "Yana chun "Sab'ai sayyor" rasadli zamirim bog'labdur. Ashraf "Haft paykar"ining yetti hurvashin peshkashimga yaroqlabdur", - deb bu an'anaviy mavzuda qalam tebratgan shoirning nomini hurmat bilan tilga oladi.

Alisher Navoiy "Xamsa"sining to'rtinchi dostoni "Sab'ai sayyor"da 7 raqami haqidagi xalq qarashlari to'la saqlanib qolgan. Xalq turmushini, an'analarini yaxshi bilgan shoir 7 raqami bilan aloqador tushunchalarni diqqat bilan kuzatgan. Dunyoning yetti qismdan iboratligi, yetti xazina, yetti mo'jiza, yetti iqlim, yetti bahodir, yetti go'zal, yetti sayyora, yetti qaroqchi yulduzlari, yetti kunlik vaqt hisobi – hafta kabi qator yettiliklarning turmushda keng qo'llanilganligidan hayratga tushgan shoir o'z dostonida "yettilik" strukturasi amal qilgan. Navoiy an'anaviy yetti go'zal obrazini butunlay yangicha talqin qiladi. Tengsiz husn sohibasi Dilorom hajrida devona bo'lgan Bahrom yetti iqlim saltanatlariga monand holda yetti qasr qurdiradi. Nozik did musavvirlari yetti qasrning har birini alohida rang bilan bezaydilar. Shohning amriga ko'ra yetti iqlimdagi eng go'zal yetti qiz yetti qasrga joylashtiriladi. Bahrom yetti kun davomida yetti qasrdagi yetti iqlimning yetti go'zali bilan hamsuhbat bo'ladi. Uni shanba kuni qora qasrda hind go'zali, yakshanba kuni sariq qasrda Rum nozanini, dushanba kuni yashil qasrda Misr farishtasi, seshanba kuni gulgun qasrda Dehli mahjubasi, chorshanba kuni nilufar qasrda Adan qizi, payshanba kuni sandaliy qasrda Baxtar hurvashi, juma kuni oq qasrda Xorazmning dilrabo malikasi kuitb oladi.

Doston asosini tashkil etuvchi yetti musofir hikoyasi ham yetti go'zal sarguzashti bilan bog'liq. Bahrom har bir qasrda mehmon bo'lganida o'sha iqlim yo'lidan ketayotgan musofirning maroqli hikoyasini tinglaydi.

Navoiy dostonidagi yetti go'zal, avvalo, yetti iqlimdan keltirilgan yettita qiz sifatida tasvirlanadi. Buyuk shoir o'z asariga asos bo'lgan yettilik qolip sirini olamning tuzilishi haqidagi afsonaviy e'tiqodlar bilan bog'lab izohlaydi. Chunki yetti qasr, yetti rang, yetti qiz, yetti musofir, yetti kun, yetti iqlim tushunchalari O'rta Osiyoda yashagan qadimgi elatlar dunyoqarashiga borib taqaladi. Hatto ajdodlarimizning afsona va rivoyatlari majmuasi "Avesto"da aytilishicha, olam yetti qismga bo'linadi. "Yetti kirshvor", ya'ni "Yetti iqlim" deb ataluvchi bu bo'linishga ko'ra olam yetti iqlimga bo'lingan. Oltinchi qismining markazida joylashgan yettinchi iqlim – Xorazmdir. Buni qarangki, "Sab'ai sayyor"da ham yettinchi kuni oq qasrda Bahromshohni qarshilagan go'zal yettinchi iqlim – Xorazmdan edi. Navoiy yetti iqlim haqidagi an'anaviy xalq qarashlariga tayanib turib yetti go'zal obrazini yaratgan.

Yetti raqami xalq og'zaki ijodiyotida

O'zbek folklori va udumlarida 7 raqamiga alohida ahamiyat beriladi. Irim-sirim va aytimlarda "muqaddas" hisoblangan 7 raqami haqida qadimiy e'tiqodlar "yetti o'lchab bir kes", "yetimning haqi yetti daryoni quritar" kabi maqollarda, "pak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor" kabi topishmoqlarda, Yettisuv, Yettiqashqa, Yettikechuv, Yettisoy, Yettiqiz kabi joy nomlari bilan bog'liq rivoyatlarda, osmondagi Yetti qaroqchi yulduzlari to'g'risidagi xalq qarashlarida saqlanib qolgan. Yetti avlod, yetti ajdod, yetti pusht, yetti ota-bobo, yetti og'ayni, yetti opa-singil, yetti o'rtoq, yetti qaroqchi, yetti o'gri, yetti dev, yetti yalmog'iz, yetti elchi singari poetik obrazlar sistemasi 7raqamining "sehrli" xususiyatiga asoslangan. Chunki 7 raqami o'zbek folklorining "sehrli" yoki magik raqamlaridan biri bo'lib, juda qadim zamonlardanoq u "muqaddas" hisoblangan. Uning xalq diliga bu qadar yaqin bo'lishida, jonli so'zlashuvga, turmushning turli sohalari

bilan bog'liq xalq qarashlariga chuqur singib ketishida folklorining roli, ayniqsa, katta bo'ldi.

Xalqimizda “Yetti og'ayni botirlar” haqida har xil rivoyatlar uchrasa, Yaponiyaning Tarama orolida “Yetti og'ayni qaroqchilar” ertagi juda mashhur. A. S. Pushkin ham “O'lik malika va yetti bahodir” ertagini rus folklori asosida yaratgan edi. Shuningdek, “Yetti yulduzcha” (maori qabilasi ertagi, Yangi Zelandiya), “Yetti raqib” (Efiopiya xalq ertagi) “Yetti bo'ri” (toradji qabilasi ertagi, Sulovesi oroli), “Yetti echkning kallasi” (Albaniya xalq ertagi), “Yetti aka-ukaning o'z otasini izlashi” (bauli qabilasi ertagi, Fil suyagi qirg'og'i) kabi folklor asarlarining yaratilishida ham “sehrli” raqamning ma'lum roli bor.

Xalqimiz orasidagi yetti iqlim, yetti xil rang, yetti falak, yetti qavat yer osti, yetti daryo, yetti yo'l haqidagi qarashlar, yetti o'g'uz, yetti urug' kabi etnik atamalar ham ana shu 7 raqamining “sirli” tarixi bilan bog'liq.

Jonli so'zlashuvda 7 raqami qandaydir silsilaga, o'ziga xos an'anaga aylanib qolganga o'xshaydi. Muhim bir ishga qo'l urishdan oldin avval “yetti o'lchab bir kesish”ni maslahat beramiz. Kuni bo'yi ko'chadan kelmaydigan yoki mehmondorchilikdan boshi chiqmaydigan ayollar haqida “yetti eshikning kalitini olib yuradi” deb kinoya qilinadi. Favqulodda, kutilmaganda ro'y bergan hodisa “yetti uxlab tushimizga kirmagan”iga hayron qolamiz. Laganbardor, xushomadgo'y odamning tavozesini esa “yetti bukilib ta'zim qilmoq” iborasida ifodalashga o'rganib qolganmiz.

7 raqamini timsollashtirish an'anasi qadimgi turklar davridayoq yozma yodgorliklardan o'rin ola boshlagan ekan. Chunki O'ngin va Cho'yren bitiktoshlarida “yetti eran”, ya'ni “yetti o'g'lon” obrazi qayd qilingan. Yodnomalar matnida tez-tez tilga olinadigan 7 raqami aniq matematik miqdor tushunchasidan ko'ra ko'proq ramziy ma'no anglatishi tarixshunos olim L. Gumilev tomonidan ham ta'kidlangan edi. Xususan, Iltemish xoqonga qarshi bosh ko'targan o'g'uz sardorlarining soni birmuncha ko'p bo'lsa-da, ular yodnomalarda “yettita” deb talqin qilinaveradi. Hatto XI asrning buyuk tilshunosi Mahmud Koshg'ariy o'zining “Devonu lug'otit turk” asarida “Yetagan” (Yetti qaroqchi yulduzlari),

“yetti qavat ko’k” (3-tom, 33-bet) tushunchalariga izoh berganida qadimiy turkiy qabilalarning 7 raqami haqidagi e’tiqodlariga suyangan.

Xalqimiz tasavvurida omad, muvaffaqiyat belgisi, baxt va ezgulik timsoli sifatida an’anaviylashgan 7 raqami o’zbek xalq ertaklarining badiiyatan boyitishda muhim rol o’ynagan.

Bobolarimizning 7 raqami haqidagi mifologik qarashlari va rivoyatlardagi, ertak va dostonlardagi yetti bahodir, yetti dev yoki yetti qaroqchi obrazlarida mujassamlashgan. Yetti bahodir haqidagi afsonaviy tasavvurlar turkiy xalqlar folklorida bir qator mushtarak motivlar va syujetlar paydo bo’lishiga asos bo’lgan. Xususan, “Ahmadlar”²⁷ va “Ermana mergan”²⁸ kabi o’zbek xalq ertaklarida safarga otlangan qahramon yo’lda bir nechta “sirli” odamlarga duch keladi. G’ayritabiiy do’stlar soni “Ahmadlar”da 4ta, “Ermana mergan”da 3tadir. Buning sababini yetti homiy haqidagi mifologik tasavvurlar folklor asarlariga singib ketishi natijasida sehrli ko’makchilar funksiyasi qayta komplekslashuvida deb o’ylaymiz. Chunki Yetti qaroqchi yulduzlari haqidagi ibtidoiy tasavvurlarni o’zida to’la saqlab qolgan. Oltoy eposi “Maaday Qara”da qator qadimiy motivlarni o’zbek xalq ertaklari syujeti bilan qiyoslash ana shunday xulosa chiqarishga imkon beradi. Mazkur dostonning ikkinchi qismi bahodir Ko’gedey Merganning afsonaviy sarguzashtlariga bag’ishlanadi va qahramonning g’ayritabiiy do’stlari ko’magida Oyxonning go’zal qiziga uylanishi tasviri bilan yakunlanadi. Oyxonning qiziga talabgor bo’lib kelayotgan Ko’gedey Mergan “yetti yo’l tutashgan” joyda birin-ketin o’ziga ikki tomchi suvdek o’xshash oltita bahodir yigit bilan uchrashadi. Shunisi xarakterliki, botirlarning har biri ma’lum bir g’ayritabiiy qudratga ega: birisi ko’l suvini bir sipqorganda ichib bitiradi-yu, to’ymaydi, ikkinchisi yerga quloq tutib olamdagi barcha sir-asrorlarni anglay oladi; yana biri odatdan tashqari tez yugurishi bilan mashhur va hokazo.

²⁷ O’zbek xalq ertaklari. Toshkent, 1981, 152-162 betlar.

²⁸ Gulpari. Namangan ertaklari. 1989, 142-143 betlar.

Oltoy dostoni va o'zbek xalq ertaklaridagi ko'makchi obrazlari bir-biriga juda yaqin. Ayniqsa, an'anaviy uch shartni bajarishda qahramonlarga ko'maklashadigan yetti homiyning mifologik tabiati to'la namoyon bo'ladi.

Olov bilan sinash motiv oltoy dostoni va o'zbek ertaklariga asos bo'lgan ilk syujetdagi birinchi shart bo'lgan deb o'ylaymiz. "Ahmadlar" ertagida birinchi shart bo'yicha talabgorning do'stlaridan biri – Ahmad so'vushak qizitilgan temir uyda sinab ko'rilsa, bu motiv oltoy eposida Oyxon o'tovi tomon kelayotgan yigitlarning oldidagi oddiy to'siqlardan biri sifatida tasvirlanadi. Podsho Oyxon o'tovining yaqinida paydo bo'lgan Ko'gedey Mergan va uning do'stlariga go'yo muruvvat ko'rsatgan bo'lib, yetti qavat temirdan yasalgan xonada dam olishni taklif etadi. Yetti bahodir olis yo'ldan g'oyat charchab kelishgan emasmi, tosh bolishlarga bosh qo'yishlari bilan qattiq uyquga ketadilar. Shundan so'ng xoqonning odamlari temir uy tagidan o't yoqib yuboradilar. Temir uy qip-qizarib cho'g' bo'lib ketadi. Garchi botirlarning yettovi ham olov bilan sinov shartida ishtirok etishsa-da, aslida ko'l suvini ichuvchi bahodir tufayli omon qoladilar. Temir uy cho'g'dek qizib turganida, ko'l suvini ichuvchi tugmalaridan birini yechib, bitta ko'l suvini to'kib bu uchinchi marta takrorlanganida, qizib turgan uyning ichi muzlab, botirlar qalin tuman ichida qoladilar, metall devorlar sovuqqa bardosh berolmay, yetti bo'lakka bo'linib, parchalanib ketadi.

Oltoy eposida qizdirilgan temir uyda yetti bahodirning bari sinab ko'rilsa, ertakga Ahmad so'vushakning yakka o'zi bu shartni bajaradi. Qolgan Ahmadlar bu qadar dahshatli issiqqa bardosh berishga qodir emaslar. "Ahmadlar" ertagida so'vushakning yakka o'zi birinchi shartni bajarishi tabiatning afsonaviy qudratiga ishonishga asoslangan. Ahmad so'vushak mifologik homiy, issiq va sovuq suv egasi, qish bilan bog'liq tabiat hodisalarinign timsolidir. Qahramon shu sehrli ko'makchisi bo'lmaganida shartni bajarolmas edi. Fikrimizcha, Ahmad so'vushak, Suvchi ("Ermana mergan" ertagida) va ko'l suvini ichuvchi bahodir obrazlarining tarixiy asoslari ajdodlarimizning tabiat stixiyalari haqidagi mifologik tasavvurlariga borib taqaladi.

“Ahmadlar” ertagida ikkinchi shart bo’yicha o’tkazilgan sinov oltoy eposidagi yugurish musobaqasiga to’g’ri keladi. Oltoy dostonida bu musobaqa – sinovda juda ko’p talabgorlar qatnashsa, ertakda Ahmad yugurak Temirxon podshoning bir yugurak kampiri bilan bellashadi. Bu motivning tayanch nuqtasi yalmog’iz kampir bilan bog’liq. Aslida yalmog’iz kampir botirning g’alabasiga to’sqinlik qilish uchun yuborilgan epik g’ov. Chunki “Maaday Qara”da Debelek kampir Erlikning ko’rsatmasiga binoan yugurish sinovida hammani ortda qoldirib borayotgan botirning yo’lini poylab oldidan chiqadi va bir payola zaharli may berib uni zaharlaydi. O’zbek ertagida yalmog’iz kampirning bu funksiyasi rivojlanib ketib, bora-bora tarafkashlardan biri darajasiga ko’tarilgan. Ahmad yugurak va Sikirtpek (Sakrovchi) sodiq do’stlari ko’magida o’z raqiblarini dog’da qoldirib, marraga birinchi bo’lib yetib keladilar.

Uchinchi shartda yana tabiatning mifologik qudrati namoyon etiladi. Ahmad sichqon tuproqqa qorishtirilgan 40tuya donni tong otguncha terib olishga ulguradi.

Fikrimizcha, mazkur syujetning ilk variantlarida yetti nafar ko’makchi obrazi mavjud bo’lganga o’xshaydi. O’zbek xalq ertaklaridagi sehrli ko’makchi obrazlarning tarixiy-tipologik tahlili shuni ko’rsatadiki, ularning soni nechta bo’lishidan qat’iy nazar yetti xil vazifa bajaradilar. Bizningcha, ilk syujetda yetti ko’makchi obrazi ham bo’lgan va u Yeb to’ymas obrazidir. Chunki “kiyikning o’g’li Jamxux” nomli abxaz xalq ertagida qahramon go’zal qizni izlab safarga otlanganida yo’lda har biri alohida g’ayritabiiy karomat ko’rsata oladigan yetti yigit bilan do’stlashadi. Bu yigitlar Jamxuxga hamroh bo’lasilar. Abxaz ertagidagi yetti yigit o’zlarining bajaradigan funksiyalariga ko’ra ham turkiy xalqlar folkloridagi yetti afsonaviy ko’makchi obraziga mos keladi. Ulardan biri yeb to’ymas, ikkinchisi ko’l suvini shimirgan, uchinchisi quyonlar bilan chopishib ularni ortda qoldiradi, to’rtinchisi tosh otuvchi, beshinchisi chumolilar suhbatini tinglovchi, oltinchisi qushlarga sezdirmay patini almashtiradi, yettinchisi yelkasida ulkan uyni ko’tarib yuradi²⁹. Ko’rinadiki, Yeb to’ymasdan boshqa barcha personajlar oltoy-turk variantiga mos keladi. Aslida ilk syujetda Yeb to’ymas

²⁹ Зухба С. А. Абхазская народная сказка. Тбилиси. 1970. с. 131.

obrazi ham bo'lgan. Chunki "Ahmadlar" ertagidagi kichik bir detal shunday xulosa chiqarishga imkon beradi: "Bizning qornimizni ham bir to'ydirib qo'y", - debdi Ahmad Sichqon. – Bular podsho bilan so'zlashayotgan paytda tashqarida qolgan uch Ahmad podshoning filini yeb qo'yibdilar. Yeb to'ymas obrazining yana bir belgisi Ahmad O'qchi tasvirida uchraydi. Ahmadlar to'rtinchi sheriklariga ro'para bo'lishganda u "duch kelgan narsani xoda bilan urib, xom-xatala yeb yurgan" bo'ladi. Avval yetti afsonaviy ko'makchi obrazi bo'lgan, keyinchalik syujet evolyutsiyasi davomida ularning ayrimlarining funksiyasi boshqa personajga beriladi. Xullas, sehri yordamchilar soni kamaysa-da, aslida ularning funksiyasi yettitaligicha qolaveradi. Oltoy dostonida ulardan birining funksiyasi asosiy qahramonga o'tgan, lekin uning o'zi bilan an'anaviy yettilik saqlanib qolavergan.

2 – bob. Ertaklar poetikasida “sehrli” raqamlarning o’rni.

2.1. Ertaklardagi an’anaviy “to’qqiz” sonining badiiy funksiyalari.

Xalq tiliga ahamiyat bersangiz, ish ko’payib, qo’l-qo’liga tegmay qolganda, keksalar “to’qqiz to’lg’oq bir keldi” deyishadi. Sochi taqimiga tushadigan sohibjamol qizlar “sochi to’qqiz tutam” deb ta’riflanadi. Bunday iboralarda to’qqiz raqami ko’plik, bo’liqlik, to’liqlik ramziga aylanib ketgan.

Uyg’urlar “to’qqiz tuluging omon bo’lsin” iborasini ko’p qo’llaydilar. An’anaga ko’ra, “to’qqiz tulug” – inson organizmidagi eng zaruriy a’zolar atamasidir. Ular quyidagilar: ko’z, quloq, burun, og’iz, qo’l, oyoq, qorin, tish va til. Bu iborada ham “to’qqiz” soni an’anaviy tarzda olingan.

Folklorda “to’qqiz” raqamiga alohida e’tibor beriladi. Ertak qahramonlari to’qqiz oy, to’qqiz kun, to’qqiz soat, to’qqiz daqiqada dunyoga keladilar. G’ayri oddiy sur’atda ulg’aygan botir to’qqiz kech-kunduz yo’l yurib, ilk qahramonligini ko’rsatgan paytda endigina to’qqiz yoshga to’lgan bo’ladi. To’qqiz qavat ko’shk ustida bazm qurgan malika uzoq yurtdan kelgan yorini to’qqiz qavat ko’rpacha ustiga o’tkazib izzat qiladi.

Qadimgi Sharqda, xususan, turkiy elatlarning qabila sistemasida to’qqiz raqamiga alohida e’tibor berilganligi tasodifiy emasga o’xshaydi. Chunki qadimgi turk mifologiyasida to’qqiz raqami muqaddas sanalgan. Ezgulik tangrisi Ulganning vatani – Ko’k to’qqiz qavat, yovuzlik ramzi Erlik va uning o’g’illari makoni yer osti ham to’qqiz qavat emish.

Mashhur sayyoh va olim G. G. Potaninning yozishicha, qadimgi turk koinlari to’qqiz qavatli Ko’kka yetishish uchun maxsus marosim chog’ida to’qqiz doira ichida muqaddas raqs ijro etishgan. Doira markazida to’qqiz shoxli daraxt va to’qqiz chizikli aylana tasvirlangan childirma qo’yilgan. Go’yo to’qqiz chizikli aylana Ko’k va Yer osti olamining ramziy shakli bo’lsa, daraxtning to’qqiz shoxi Erlik va uning o’g’illari ot bog’laydigan mixcho’p vazifasini bajarar emish.

Qadimgi turk afsonalarida muqaddas raqam ko'rsatkichi sifatida turg'unlashgan to'qqiz soni asta-sekin folklorning boshqa janrlariga o'ta boshlagan.

“To'qqiz” raqamida qandaydir muqaddas sir bor deb o'ylagan bobolarimiz ibtidoiy davrlardan oq turli marosim va udumlarda, folklor asarlarida bu raqamga an'anaviy tarzda murojaat qilaverganlar.

To'ylarimiz bilan bog'liq marosim va udumlarda xalqimiz ayrim magik raqamlar yaxshilik, omad, baxt ramzi deb ishongan. Bu qadimiy an'analar, ayniqsa, to'qqiz raqami ishtirok etgan poetik assotsiatsiyalarda ko'proq ko'zga tashlanadi. To'qqiz qadimgi zamonlardan buyon magik raqam sifatida turkiy xalqlarning mifologik va poetik tafakkuri taraqqiyotida sezilarli rol o'ynagan. Bu raqam o'zbek to'y marosimlarining doimiy raqam an'anasidir. To'qqiz tovoq qo'yish, to'qqiz xil taomlar bilan kuyovlarni mehmon qilish, qiz qalinida to'qqizliklarga e'tibor berish, to'y kechasi kelin-kuyov cho'ntagiga to'qqiz oshiq yoki tuxum solib qo'yish kabi udumlar bu magik raqamga e'tiqod baland bo'lganligini ko'rsatadi.

Fikrimizcha, qadimgi ritual va aytimlarda an'anaviy uchlikning ramziy komplekslarda uchlanishi (3x3) natijasida paydo bo'lgan to'qqiz raqamining muqaddaslashishi haqidagi fikr to'g'riroq. Oy kalendari bo'yicha astronomik vaqt birligini uchga bo'lish bu an'anani mustahkamlagan.

Uchlik an'anasining rivojlanishi bu magik raqamning mifologik-geneologik asosidir. Keyinchalik to'qqiz soni mustaqil magik raqam sifatida turmush va madaniyatda turli hodisalar talqiniga singib ketadi.

O'zbek xalq ertaklarida to'qqiz raqami turli poetik formulalar tarzida qayd qilinadi. To'qqiz aka-uka, to'qqiz kecha-kunduz yurmoq, to'qqiz qavat ko'rpacha to'shamoq, pari yuzidagi to'qqiz qavat niqob va hokazolar. Bu raqam marosimlarning muqaddas miqdoriy xarakteristikasi tarzida ertakka ko'chgan an'anaviy konstruksiyalarda, ayniqsa, yaqqol ko'zga chalinadi: “Nigini shoxi maron” ertagida tasvirlanishicha, “Podshohim, kechagi aytgan so'zlari bo'yicha, to'y va to'qqizlarini olib keldi”, - dedi xabarchi”. ”Bo'ri qiz” ertagida “Bo'ri qizni

kenjaga bermoqchi bo'libdi. Bo'ri shoh bolaga: "Sen borib onangga ayt, sakkizta qora tuya va bitta oq tuya yuborsin, - debdi"³⁰.

Bu ertakda to'qqiz raqami 8+1 modeli shaklida talqin qilinadi: oq-qora qarama-qarshiliklar juftligi poetik formulaning semantik yadrosidir. Bola olib kelgan sakkizta qora tuyaga oltin yuklanadi, oq tuyaga esa bo'ri qiz – kelinni mindiradilar.

Ba'zi ertaklarda qiz qalini e'lon qilinganda, bo'rttilirilgan to'qqizliklar tasvirini uchratish mumkin. Udumlarimizda qalin tarkibidagi predmetlar sonining 7, 9 yoki 12 ta bo'lib kelishiga amal qilinadi. "Mo'ndi ko'za" ertagida qalin tarkibidagi mollar soni to'qson to'qqiztadan belgilanadi. "Podsho kampirning holini ko'rib:

- To'qson to'qqiz tuya, to'qson to'qqiz qo'y, to'qson to'qqiz sigir va shunga o'xshash hayvonlardan to'qson to'qqiztadan qirq kunda topib kelasan, shunda senga qizimni beraman, - debdi"³¹.

Qalin mollarining to'qson to'qqiztadan qilib ko'rsatilishi alliteratsion giperbola mahsuli bo'lishi kerak. To'qqizlik an'anasi fonemalar mosligi hisobiga bo'rttirib tasvirlangan.

O'zbek xalq ertaklarida to'qqiz raqamining hosilalari – 18 (9x2), 90 (9x10), 99 (9x11) raqamlari ham qo'llanadi. Bu an'anaviy raqamlar magik to'qqizlikning funksional doirasi kengayishi tufayli yaratilgan badiiy-miqdoriy kategoriyalar hisoblanadi.

Xullas, to'qqiz raqami bilan bog'liq poetik formulalar xalqimizning qadimiy qarashlari zahirida shakllangan tarixiy-etnografik xususiyatlarini aks ettiradi. Ertaklarda to'qqizlik an'anasi ko'pincha urf-odat va marosimlar bilan aloqador motiv va epizodlar tarkibida uchraydi.

³⁰ Gulpari. Namangan ertaklari. 1989, 142-bet.

³¹ Gulpari. Namangan ertaklari. 1989, 126-bet.

2.2. “Qirq” raqami va epik ko’plik tushunchasi.

Ertaklarimizda ko’p qo’llaniladigan “sehrli” raqamlardan biri qirqdir.

Tilimizda ishtirok etgan so’z va iboralar shu qadar ko’pki, ularning har biri bobolarimizning qadimiy e’tiqodlari bilan bog’liqdir.

Ertak qahramonlari qirq kecha-yu qirq kunduz yo’l yurib, qirq boshli ajdarhoni o’ldirib, uning qirq hujrali makonini qo’lga kiritadilar. Shoh usta qirq xonali muhtasham saroyini qurib bitkazish uchun qirq kun muhlat beradi. Jang ham qirq kecha-yu qirq kunduz davom etadi. Bahodirning qilichi qirq gaz cho’zilsa, parining tilla kokili qirq quloch bo’ladi va hokazolar.

Bu raqam ma’lum uslubdagi iboralar uchun go’yo qolipga aylanib qolganday tuyuladi: qirchillama qirq yoshida, qirq kokil, bir kam qirq, qirq yigit kabi.

Xalq og’zaki ijodida sochi mayda qilib o’rilgan sohibjamollar “qirq kokil” yoki “chilvir sochli qiz” deb ta’riflanadi. Ilgarilari qizlar sochini qirqta qilib o’rgan. Bu udum “qirqkokil” yoki “shoh kokil” deb atalardi. Lekin bu o’rinda ham “qirq” raqami an’anaviy tarzda olinavergan. Soch o’rimlari soni aynan qirqta bo’lmasa-da, “qirq o’rim soch” deyilavergan. Bunda qiz kokillarining nihoyatda mayda qilib o’rilganligiga, ko’pligiga ahamiyat beriladi.

Demak, bunday ibora va tushunchalar tarkibidagi “qirq” raqami ko’plikni, jamlilikni bildirar ekan.

“Qirq” raqamining magik sonlar sistemasidan o’rin olishi insoniyat o’tmishining qadimgi davrlaridagi mifologik qarashlariga borib taqaladi. “Qirq” so’zining qadimgi turk tilidagi ma’nolarini o’rgangan V. A. Gordlevskiyning fikricha, “qirq” soni aniq miqdorni emas, balki “ko’p” tushunchasini anglatgan. Qadimgi turklar “qirq” soni bilan marosimlarda qilinadigan qurbonliklar miqdorini ifodalashgan.

“Qirq” raqamiga e’tiqod qo’yish sabablari haqidagi mazkur mulohazani takrorlagan qoraqalpoq tilshunosi A. Bekbergenov “qadimgi davrlarda sanash

qiyin bo'lgan predmetlar, diniy tushunchalar qirq soni bilan belgilangan³² – deb hisoblaydi. S. Kenesboyevning fikricha esa, 3, 7, 9, 40 raqamlari mifologik tushunchalar bilan bog'liq bo'lib, qachonlardir “totemistik” ma'no ifodalagan emish³³. Ayrim raqamlarning “muqaddas”lashuvida mifologik qarashlarning ahamiyati katta, albatta, ammo biron-bir son totem sifatida sig'inish obyekti bo'lganligi ma'lum emas. Bundan tashqari magik raqamlarning paydo bo'lishi totemistik tasavvurlardan burungi mifologik qarashlar bilan aloqador.

Qirq raqamining folklor asarlarida qo'llanilishi haqida maxsus maqola yozgan turk olimi Y. Kerim ertak, afsona, maqol va iboralar tarkibidagi qirq sonining lingvopoetik xususiyatlarni keng tahlil qilgan. Turk folklori materiallariga tayangan olim “qirq soni xalq tasavvurida omadli yoki omadsiz tushunchalaridan tashqari so'ngsizlik va ko'plikni ham bildiradi” – degan xulosaga keladi³⁴.

Darhaqiqat, tilimizda shunday iboralar bor, bunday birikma va tushunchalar tarkibidagi qirq soni matematik belgi sifatida qo'llanilmagan. Xususan, juda ham eski, yamog'i ko'p, quroqli kiyim kiygan qalandarni dostonlarda “cho'poni qirq yamoq” deb ta'riflanadi. Ko'chadan beri kelmaydigan, eshikma-eshik yuradigan ayollar haqida “qirq eshikning kalitini olib yuradi” deyдилar. Aslida esa cho'ponning yamog'i aynan qirqta bo'lishi shart emas. Bu yerda uning ko'pligiga diqqat qilinayпти, xolos. Bunday iboralardagi “qirq” raqami “ko'p” kalimasiga ekvivalentdir.

“Qirq” raqamining mifologik pozitsiyaga o'tganligi sababini ayrim olimlar ibtidoiy sanoq sistemasiga bog'laydilar. Rus tilshunosi L. Uspenskiyning fikricha, qadimiy odam sanash mumkin bo'lmagan narsalarni aniq miqdorini ifodalashga ehtiyoj sezganda o'sha narsaning sonini soddagina qilib, “qirq”ta deb qo'ya qolgan. Qirq-ko'p, son-sanoqsiz predmetlar sonini ifodalashga xizmat qilgan³⁵.

³² Bekbergenov A. Qaraqalpaq tilidagi sanliqlar. Nokis. 1976. 45-bet.

³³ Kenesbayev S. Jetti, ush, tog'iz, qiriq, pen baylanisti ug'imder. 1976. 45-bet.

³⁴ Kerim U. Turk dilinde 40. Ankara. 1983. S. 752.

³⁵ Успенский Л. Слова о словах. Москва. 1970. С. 285-288.

I. G. Bashmakov, A.P. Yushkevich, A. I. Borodinlar qirq raqami juda ko'p xalqlarda sanoq sistemasidagi eng "katta" raqam, sanoqning cheki vazifasini bajargan, deb hisoblaydilar. Hisob-kitobda yangi usullar kashf etilishi bilan qirq soni o'zining an'anaviy "huquq"laridan mahrum bo'lib, xalq qarashlarida ritual miqdoriy ko'rsatkichga aylangan³⁶.

Tabiat kuchlari oldida ojiz bo'lgan qadimgi odam son-sanoqsiz, buning ustiga ilohiy bo'lib ko'ringan narsalarning aniq miqdorini hisoblay olmagan. Shuning uchun ajdodlarimiz o'zi aqli yetmagan, tasavvuriga sig'dira olmagan narsalarni ilohiylashtirib qabul qilgan. Sanab bo'lmaydigan narsalar miqdorini bildiruvchi "qirq" soni dastlabki marosimlarda ritual ko'rsatkich sifatida qo'llangan. Keyinchalik sanoq sistemasida aniq raqam atamasiga aylangach, ibora va tushunchalarda, umuman, ko'plikni, sanoqning ma'lum chegarasini anglata boshlaydi. Dastlab, jamlik, buyuklik, ko'plik, umumiylik ma'nolarini anglatgan qirq raqami keyinchalik turli iboralar va tushunchalar tarkibiga singib ketib, bora-bora an'analarga aylanib qolgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, "qirq" aniq bir miqdorni, sonni anglatmaydi. Ertaklardagi "qirq kunlik yo'l", "qirq kunlik muhlat" tushunchalari masofa vaqtning aniq o'lchovini emas, balki o'sha yo'l va vaqtning cheksizligini bildiradi. "Qirq" soni turli irim va marosimlarda ma'lum chegarani, sonlar sistemasiga chekni ilohiy tarzda ifodalab keladi. Bu fantastik tushuncha "qirq kokil qiz", "qirq quloqli qozon" iboralarida, ayniqsa, yaqqol seziladi. Aslida esa, qizning kokili yoki qozonning qulog'i aynan qirqta bo'lishi shart emas. Bu yerda ularning ko'pligiga e'tibor berilyapti. "Qirq" raqami qachonlardir sanoqda eng katta son vazifasini bajargan, ammo u hozirgi kunga kelib, oddiy arifmetik belgi (4x10) holiga kelib qolgan. Folklor asarlarida, marosim va udumlarimizda bu son bilan aloqador xilma-xil xalq qarashlari saqlanib qolganki, bunday ramzlar bobolarimizning mifologik tasavvurlari bilan bog'liq. "Qirq" soni shartli miqdor belgisi sifatida va epik makon va zamoni ifodalovchi badiiy formulalar tarkibida ham qo'llaniladi.

³⁶ Бородин А. И. Число и мистика. Донецк. 1975. С. 40-42.

Bunday konstruksilayalardagi “sehrli” raqam aniq matematik miqdor ma’nosini anglatmaydi, qirq sonida shartlilik qanchalik kuchli bo’lsa, qahramon harakat qiladigan epik makon va zamon shunchalik ramziy bo’ladi. “Qirq kunlik muhlat”, “yetti yillik masofa” birikmalardagi raqamlar alohida holda astronomik vaqt ifodasiga to’g’ri keladi, ammo kontekstda bu raqamlar syujet rivojini ta’minlaydigan muayyan qonuniyatlarga bo’ysunadi. Qahramon biz tasavvur qiladigan qisqa muddat ichida butun bir sarguzashtlardan iborat “umr yo’lini” bosib o’tadi. Odatda, qirq kun muhlat olib, 39-kuni shart bajarilsa-da, bajarilgan ishni 40 kunlik astronomik vaqt birligida sig’dirish qiyin. “Misr podshosi” ertagida Hamro bulbuligo’yoni topib kelish uchun otasidan 40 kunga ruxsat olib safarga o’tlanadi. Shartga ko’ra 40 kun ichida qaytishi kerak. Parining yurti “bu yerdan o’n ming yillik yo’lda”, “o’zi esa bundan 40 kunlik yo’l narida, qirq paxsalik tilla qo’rg’onda” yashaydi.

“Qirq kunlik muhlat” formulasining epik vaqt sifatida an’anaviyligini parilarning Hamroni qidirishi tasvirida ham ko’rish mumkin. Uni sakson kun (40×2) qidiradilar. Hamro topilgach, Xurliqo askarolariga qirq kun o’ynab kelishga ruxsat beradi. Hamro sevgilisi bilan qo’rg’onda qirq kun yotgandan keyin otasiga bergan va’dasi va qirq kunlik muhlat esiga tushadi³⁷. Agar Hamro safarini real astronomik o’lchov bilan hisoblaydigan bo’lsa, 40 kunlik muhlat 200 kunga ($40+80+40+40$) cho’zilgani ma’lum bo’ladi. Yuqorida aytganimizdek, epik vaqt hamisha ramziydir. Qirq kulik muhlat va masofa formulalari syujet evolyutsiyasi davomida an’anaviy tarzda keltirilaveradi. Ertakdagi vaqt-makon formulalaridan real zamon tushunchasini izlash befoydadir.

Qahramonning maqsadga yetishi uchun yo’lga chiqishi o’zga yurt tomon yo’nalgan epik harakatdir. O’zbek xalq ertaklarida harakat formulasining qirq soni ishtirokida shakllangan xilma-xil semantik modellari mavjud. Qirq soni qatnashgan poetik formulalarda badiiy tasvir an’anaviy ramziylik kasb etadi. “Qirq kecha-kunduz yo’l yurmoq” tushunchasi “yo’l yursa ham, mo’l yurib” iborasi kabi “juda

³⁷ Gulpari. Namangan ertaklari. 1989, 55-56 betlar.

ko'p, juda uzoq yurmoq" ma'nosini anglatadi. Odatda bunday epik vaqt formulasida qahramon bosib o'tgan masofa olisligi bo'rttirib tasvirlanadi.

Odatda ertak personajlarining uch kundan qirq kungacha cho'ziladi. Qahramon izlab yurgan dev yoki pari botir kelgan paytda uzoq uyquga ketgan bo'ladi. Qahramon dev yoki parining mubolag'ali uyqusi boshlanganiga yoki tugashiga 2-3 kun qolganda yetib keladi. "Ermana mergan" ertagida botir sirli qo'lni izlab yurib, bir pariga duch keladi. Pari Ermana merganga yo'l-yo'riq ko'rsatib deydi: "Sen qidirib kelgan qo'l, mening pari singlimning qo'li bo'ladi. Uning qirq quloch sochi bor, u qirq kun uxlaydi. Uxlaganiga endi uch kun bo'ldi"³⁸.

"Pahlavon Rustam" ertagida botir Devsafidni qidirib kelsa, u uxlab yotgan bo'ladi. "Men surunkasiga bir oy uxlashim kerak. Bugun 27-kun, yana uch kundan keyin kel. Shunda seni qovurib yeyman", - deb g'o'ldirabdi dev"³⁹.

An'anaga ko'ra, qahramon kelgan paytda izlanayotgan dev yoki pari uyquga ketganligiga sabab, fikrimizcha "ramziy ko'rlik" bo'lsa kerak. Qahramon va dev yoki pari ikki xil olam vakillari bo'lganligi uchun bir-biriga nisbatan ko'rinmasdir. Ramziy ko'rlik ertaklarda "qirq kunlik uyqu" formulasi orqali tasvirlangan. Rustam kelgan paytda Devsafid uxlab yotganligi, ya'ni qahramonni ko'rmaganligiga sabab shu. Aslida u uyg'oq, faqat o'zga olam vakili hisoblangan Rustamga nisbatan uyqudadir. "Ermana mergan" ertagidagi qirq quloch sochli pari ham uxlab yotganligi uchun qahramon kelganligini sezmaydi.

Epik uyqu ko'pincha qirq raqamiga bog'lanadi. Chunki qirq kunlik uyquga ketgan dev yoki pari 39-kuni qahramon tashrifi bilan "bevaqt" uyg'onadi. 30 kunlik uyquga ketgan devni Rustam 27-kuni uyg'otadi.

Epik an'anaga ko'ra, ertak qahramoning kasali uzoqqa cho'ziladi. Biror voqea yoki afsonaviy qahramon haqida xabar berilganda "uch oydan buyon kasal", "yetti yillik kasali (bezgagi) qo'zg'adi", "qirq yillik kasalday" kabi an'anaviy formulalar qo'llaniladi.

³⁸ Gulpari. Namangan ertaklari. 1989, 175-bet.

³⁹ O'zbek xalq ertaklari. Toshkent, 1981, 13-bet.

Xastalik muddatini bildiruvchi magik raqamlar personajning og'ir ahvolidan darak beradi. Chunki olti oy yoki olti yillik to'shakda yotish mashaqqati qanchalik achinarli bo'lsa, uni qisqa fursatda davolagan qahramonning afsonaviy qudrati shunchalik ehtirosli bo'ladi. Xastalik motivi o'z-o'zidan davolash epizodlarini talab qiladi. Davolash muddati turli xil bo'lib, ko'pincha 40 raqami bilan bog'liqdir.

“Malikjon” ertagida shahzoda Asfiyani qirq kun davolab soppa-sog' qildi⁴⁰”.

Bunday davolash va xastalik formulalarimizdagi qirq raqami “juda uzoq”, ya'ni umumiy – abstrakt vaqtni ifodalaydi.

Qahramonning epik manzilni tark etishi, hamrohlarigi qaytish vaqti va kutish muddatini belgilashi ham sehrlilik raqamlar vositasida amalga oshadi. Umuman, muddat haqida gap ketganda, albatta, sehrlilik “qirq” raqamiga murojaat qilinadi.

Qahramon safarga o'tlanishdan avval qaytish vaqtini aniq belgilaydi, o'sha muddatda qaytmasa, bu uning halokati belgisidir.

Kutish tasvirida safarning taxminiy muddati va qaytish muddati formulalari bir-birini to'ldiradi. Bunday formulalar talqiniga ko'ra, qahramon belgilangan muddatda qaytib keladi. “Qiron botir” ertagida bola tushida ko'rgan nozaninni izlab safarga chiqadi va Qiron ismli bahodir bilan aka-uka tutinadi. Bola botirga maqsadini aytganda Qiron shunday deydi:

“Ukam, sen tushingda ko'rgan qiz haqiqatdan ham shu bog'da yashar edi. Bundan ikki hafta oldin uni devlar olib qochib ketdi. Qiz shu yurt podshosining qizi edi. Endi sen menga uka bo'lding, qanchalik qiyin bo'lsa ham, men bu qizni senga topib beraman. Sen shu bog'da meni qirq kungacha kut, agar qirq birinchi kuni choshgoh vaqtida kelmasam, umidingni uzib o'z yurtingga ketaver”⁴¹.

Bola qirq kun kutadi, qirq birinchi kuni choshgoh vaqtida sandiq orqalagan Qiron paydo bo'libdi.

⁴⁰ Kulsa – gul, yig'lasa – dur. Toshkent. 1973. 269-bet

⁴¹ O'zbek xalq ertaklari. Toshkent, 1981, 13-bet.

Qizni devlar ikkinchi marta o'g'irlab ketishganda, Qiron yana safarga o'tlanadi. Bu "qayta izlash" motivida ham "safar-qaytish" formulasi birinchi syujet mavzuidagi an'anaviy modelning qaytarig'idir.

"Olmos botir" ertagida bulbuligo'yoni izlab chiqqan botir borsa kelmas yurtidagi yalmog'iz kampirning bog'idan belgilangan muddatda qushni olib keladi. "Yo'l uzoq, xavf-xatar ko'p. men qirq kun deganda qaytib kelaman. Qirq birinchi kuni ham kutinglar. Kelmasam, meni o'ldi, deb hisoblanglar", - debdi Olmos botir ketish oldidan⁴².

O'zbek xalq ertaklaridagi epik to'y motivi tasvirining raqam elementi ko'pincha "qirq kecha-kunduz" an'anaviy formulasida ishtirok etishini ko'rsatadi. Qirq kunlik to'y yoki sayil "uzoq davom etgan tantana" ma'nosini anglatadi. To'y muddatining qirq raqami vositasida bo'rttirib tasvirlanishi syujetga emotsional ohang bag'ishlaydi.

O'zbek xalq ertaklarining kompozitsion strukturasi epik shartlarni bajarish bilan bog'liq sarguzashtlar tasviri muhim ahamiyatga ega. Ko'pincha shoh yoki yalmog'iz kampir qahramonni og'ir topshiriq bilan safarga jo'natadi. Shart aslida antagonistning faoliyati bilan bog'liq bo'lib, qahramonni sinashga qaratilgandir. Topshiriq odatda bajarib bo'lmaydigann mashaqqatli vazifalardan iborat: suv parisini olib kelish, shoh tushida ko'rgan sehrli qush yoki otni keltirish, odamxo'r dev yoki ajdar iskanjasidagi qizni qutqarish va hokazolar. Bunday vazifani uddalash uchun qahramonga ma'lum vaqt – muddat zarurdir. An'ana bo'yicha shoh sharti yoki topshirig'ini bajarish uchun qahramon ma'lum mudat – muhlat berishlarini talab qiladi. Talabgor (antagonist) ijrochi (qahramon)ning talabini bajo keltirib, muhlat berishga rozilik bildiradi. Tomonlar kelishgan muddat – mashaqqatli afsonaviy topshiriqni bajarishga ketgan epik vaqt ifodasidir. O'zbek xalq ertaklarida muhlat modellari tarkibida 3, 40 kabi magik raqamlar ishtirok etadi. Raqamsiz muhlat belgilanmaydi, chunki muhlatning vaqt belgisi raqam vositasida reallashadi.

⁴² O'zbek xalq ertaklari. Toshkent, 1981, 4-bet.

Ertaklarda turli voqea-hodisalar bilan bog'liq muhlat formalari mavjud: qahramon shoh topshirig'ini bajarish uchun qirq kun muhlat so'raydi.

“Malikai jahon” ertagida zolim shoh o'z qizining go'zalligiga shaydo bo'lib nikohiga olmoqchi bo'ladi. Shariat bo'yicha, ota o'z qiziga uylanishi mumkin emas. Shoh vaziru ulamo va yasovullarini chaqirib niyatini ma'lum qiladi va uch kun ishida biror yo'l topishni buyuradi. Muhlat bitgan kuni bir dono yigit shohga g'alati maslahat beradi: “qizni bir sandiqqa solib, bozorga sotishga olib chiqmoq lozim, agar sandiq sotilmay qiz o'zimizga qaytib kelsa, qiz sizniki bo'ladi, chunki qaytgan mol egasiga tan”. Qiz shu yo'l bilan otasining yovuz niyatidan xalos bo'ladi”⁴³.

“Musofirbek” ertagida go'zal xotinni olish uchun shoh Qo'ldoshni yo'qotmoqchi bo'lib, uch marta og'ir vazifalarni bajarishga majbur qiladi. Musofirbek xotining masalahati bilan topshiriqni bajarish uchun har safar qirq kun muhlat so'raydi⁴⁴.

Ertakda Qo'ldoshga uch marta vazifa topshiriladi:

- 1) yo'lbars sutini topib kelish – 39-kuni bajariladi;
- 2) xazinadan yo'qolgan oltin g'ishtlarni topish – 39-kuni bajariladi;
- 3) shohning o'lgan ota-onasini ko'rib kelish – 40-kuni bajariladi.

Muhlat formulasi tarkibidagi sehrli raqamlar ertak tuzilishida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, epik shartlar kombinatsiyasiga asoslangan ertaklar kompozitsiyasida muhlatning roli yaqqol seziladi. Shart yoki og'ir vazifani bajarish vaqti – ijrochiga berilgan muhlatlar yig'inisi ertak syujetining umumiy epik zamon tushunchasini anglatadi.

Qalin molini topib kelish muddati ham shoh – talabgor topshirig'ining bir turi bo'lib, zolim va ochko'z podshoh kambag'al yigitga qiz berishni xohlamay, unga og'ir qalin miqdori tayinlaydi. Aytilgan narsalarni topish uchun ma'lum muddat belgilashdan maqsad, bajarib bo'lmaydigan shartni uddalamagan yigitdan

⁴³ Gulpari. Namangan ertaklari. 1989, 225-226 betlar.

⁴⁴ O'zbek xalq ertaklari. Toshkent, 1981, 21, 22, 24-betlar.

qutulishdir. Ammo kambag'al yigit sehrli buyum yoki mifik homiy ko'magida shoh aytgan muddatda qalinni muhayyo qiladi.

“Mulla Marajab” ertagida tasvirlanishicha, sovungar chol qo'shnisining uyiga sovchilikka chiqqanda, podshoh g'azablanib, cholni o'limga buyuradi. Dono vazirning aqlli maslahati tufayli sovungarning hayoti qaytarilib, shart qo'yiladi: “mingta qo'y, mingta echki, mingta sigir, mingta ho'kiz va hokazo qimirlagan jondan mingtadan qirq kundan topib kelasan”. Bola sehrli pichoq yordamida podshoh aytgan narsalarni ortig'i bilan topib beradi”⁴⁵.

Biz yuqorida shoh – talabgor qo'yadigan muhlat muddatidan iborat epik vaqtning badiiy an'anasini ko'rib o'tdik. Ertakda ijrochi tashabbusiga ko'ra ham muhlat belgilanadi. Bunday vaqt muddati talabgor topshirig'ini bajarish uchun emas, bevosita ijrochining o'z ehtiyoji uchun zarurdir. “Vospiroxun” ertagida “To'y yaqinlashgan sayin Vospiroxun o'zini kasallikka soladi. Qiz o'zining kasalligini aytib yana uch kun muhlat so'raydi”⁴⁶. “Malikai Husnobod” ertagida ham qiz podshohdan qirq kun muhlat so'raydi: “Podshohim, menga qirq kun muhlat bering. To'rt oydan beri ko'p azob chekdim, endi qizlar bilan birga yurib, o'n-o'n besh kun o'ynab, dimog'imni biroz chog' qilib olay”, - debdi”⁴⁷.

Muhlatning so'nggi kuni belgilangan topshiriq bajariladi. “Yangi do'kor” ertagida podsho go'zal xotinni olish uchun erini yo'qotish payiga tushib, ikki marta og'ir safarga jo'natadi:

- 1) ona kiyikni tutib kelish;
- 2) podshoning o'lib ketgan ota-onasini to'yga aytib kelish.

Yangi do'kor xotining maslahati bilan har safar topshiriq olayotgan paytda shohdan qirqta qo'y, qirq qop un, qirq qop guruch va qirq kun muhlat so'raydi. Shoh yigitning talabini bajaradi, 39-kuni ertalab Hulkar pari erini Ko'hi Qofga

⁴⁵ Gulpari. Namangan ertaklari. 1989, 117-bet.

⁴⁶ O'zbek xalq ertaklari. Toshkent, 1981. 202-bet.

⁴⁷ O'zbek xalq ertaklari. Toshkent, 1981. 214-bet.

yuboradi. Yangi do'kor tog'dan ona kiyikni tutib keltiradi. Ikkinchi topshiriqni ham yigit muhlat tugashiga bir kun qolganda bajaradi"⁴⁸.

O'zbek xalq ertaklarida qirq raqami ishtirokida shakllangan qator poetik konstruksiyalar mavjud. Qirq qaroqchi, qirq qiz, qirq yigit, qirq o'g'ri, qirq uy, qirq pari kabi tushunchalar qirq raqamining mifologik asoslarini oydinlashtirishga muhim manba bo'lib hisoblanadi.

O'zbek xalq ertaklarining an'anaviy xususiyatlaridan biri qaroqchilar sonining doimiy qirqtaligidir. "Shamshirboz" ertagida tasvirlanishicha, qahramon poyloqchilik qilib tursa, qandaydir odam bir qo'lida ko'za, bir qo'lida shamdon ko'tarib suvga kela boshlaydi. Shamshirboz ham bilintirmay uning orqasidan boraveribdi. U odam buloqdan ko'zaga suv olib, g'orga kirib ketibdi. Shamshirboz ham uning orqasidan "Assalomu alaykum" deb g'orga kirib boribdi. Qarasa g'orning ichida dasturxon tepasida qirq qaroqchi qo'l yuvmoqchi bo'lib turgan emish"⁴⁹. Podsho xazinasiga o'g'rilikka tushayotganda Shamshirboz qirq qaroqchini o'ldiradi. "Qirq qaroqchi" obrazi "Qoramon va ajdar"⁵⁰, "Hakimbek botir"⁵¹, "Ozodachexra"⁵² ertaklarida ham qayd qilingan.

O'zbek xalq ertaklaridagi qirq qaroqchi obrazining talqini quyidagi belgilarga ega. Avvalo, ularning soni doim qirqtadir; ba'zan qirq bitta bo'lishi ham mumkin. Ular tog' darasidagi g'orda, kimsasiz sahrodagi qo'rg'onda, xullas, odamlardan olisda yashaydilar. Asosiy mashg'uloti o'g'irlik bo'lgan qaroqchilar ertakda qahramon faoliyatini muyyan maqsadga yo'naltiruvchi epik turtki vazifasini bajaradilar. Xususan, qahramon qaroqchilardan noma'lum shoh, go'zal malikalar, g'aroyib o'lkalar haqida dastlabki xabarni eshitadi. Bu ma'lumot qahramon sarguzashtlarini asoslaydi.

⁴⁸ Gulpari. Namangan ertaklari. 1989, 29-30 betlar.

⁴⁹ Gulpari. Namangan ertaklari. 1989, 130-131 betlar.

⁶³ O'zbek xalq ertaklari. Toshkent, 1981. 105-bet.

⁵¹ Gulpari. Namangan ertaklari. 1989, 74-bet.

⁵² Otin olma. Hayotiy ertaklari. Toshkent. 1986. 83-84 betlar.

Fikrimizcha, qirq qaroqchi obrazi ibtidoiy jamiyatdagi sotsial tabaqa – “yashirin jamiyatlar” haqidagi qadimgi mifologik tasavvurlar asosida paydo bo’lgan.

Qirq qaroqchi obrazi matriarxat tuzumining so’ngida paydo bo’lgan erkaklar “yashirin jamiyatlar”i haqidagi taavvurlarni o’zida mujassamlashtirgan. O’zbek xalq ertaklarida qirq qaroqchi faqat erkaklardangina iborat bo’lib, yashirin yashaydilar.

Qirq qaroqchi obrazi chilton haqidagi xalq qarashlariga qiyoslansa, bu an’ananing “yashirin jamiyatlar” bilan aloqasi izlarini yaqqol ko’rish mumkin. Qirq qaroqchi va chilton obrazlari talqinida bir qator mushtarak belgilar mavjud:

- 1) har ikkovi ham qirq kishidan iboratdir;
- 2) chiltonlar ham, qaroqchilar ham xalq ko’zidan yashirinadilar, ko’pchilik nazaridan qochib yuradilar;
- 3) M. S. Andreyevning yozishicha, buxoroliklar chiltonlarni “chironqaroqchi” deb ataydilar. Demak, ayrim etnografik areallarda Chilton va qaroqchi tushunchalari birlashib ketgan. Qirq qaroqchi obrazining shakllanishida xalqimizning Chilton to’g’risidagi qadimiy qarashlari ham epos vazifasini bajargan.

Qirq qaroqchi obrazi talqinidagi yana bir qiziqarli detal shuki, qahramon ularning safiga qirqinchi sherik bo’lib qo’shiladi. “Shamshirboz” ertagida qahramon birinchi kecha poyloqchilik qilganida ham qirq qaroqchiga duch keladi. Shamshirboz ularga salom berib: “Akalar, sizlarni bir kam qirqta deb eshitgan edim, men bilan qirqta bo’lar ekansizlar, meni ham o’zlaringizga qo’shib olinglar”, - deydi. Qaroqchilar “O’zimiz qirqtamiz, sening keraging yo’q”, - deydilar. Shamshirboz sanash bahonasida qator turgan qaroqchilarning boshini uzib tashlaydi.

Shamshirboz qaroqchilarning safiga qirqinchi bo’lib kirishi bejiz emas. M. S. Andreyevning yozishicha, chiltonlar soni doim qirqta bo’lishi shart ekan. Mabodo chiltonlardan biri o’lsa, ular biron yosh bolani yoki yigitni o’g’irlab ketib,

o'zlariga qirqinchi sherik qilib qo'shib olarkan. Demak, chiltonlar ham zarurat tug'ilgandam qirqinchi odam hisobiga o'z saflarini to'ldirib turisharkan.

Shamshirbozning "bir kam qirq" qaroqchi orasiga borishi "qirq qaroqchi" epik tarkibining yoshlarni ma'lum sinovlardan o'tkazib, chiniqtiruvchi ijtimoiy tabaqa rolini bajarishini ko'rsatadi. "Qirq qaroqchi" ishtirok etgan ertaklarda odatda qahramon avval qaroqchilar safiga qo'shib, hiyla yo'li bilan ularni o'ldiradi. Keyin o'z sarguzashtlarini davom ettiradi. "Qoramona va ajdar" ertagida botir qaroqchilar makonida mehmon bo'lib, ularning ovqatiga zahar qo'shib o'ldiradi⁵³. Qirq qaroqchi obrazining syujetdagi badiiy funksiyasi qahramonga Xudoyberdi podshoning ikki sohibjamol qizi haqidagi dastlabki xabarni yetkazishdan iboratdir. Aslida bu motivda yoshlarning dovyurakligini, botirligini sinab ko'rish marosimi – initsiatsiya rituellari o'z aksini topgan. Qoramona ajdarni o'ldirib, shohning katta qizini ozod qilishi va Ho'kiz polvonni yengishi uchun o'ziga xos magik qudrtaga ega bo'lishi kerak edi. "Qirq qaroqchi" – "yashirin jamiyat" ana shunday sirli xususiyatlar o'rgatiladigan, erkaklar guruhining muqaddas an'analari jamlangan ijtimoiy tabaqadir.

Chiltonlar haqidagi xalq qarashlarini atroflicha talqin etgan taniqli etnograf M. V. Sazonova Chilton to'g'risidagi tasavvurlar o'smirlarni muayyan yosh – tabaqa bosqichidan navbatdasisiga o'tkazish vazifasini bajaruvchi initsiatsiya marosimi bilan bog'liq degan xulosaga kelgan.

Qahramon qirq qaroqchi makoni orqali sarguzashtlarni davom ettirishi initsiatsiya marosimi ifodasidir. Marosim o'tkaziladigan "yashirin jamiyatlar"ning o'z tartb-qoidasi, o'ziga xos "nizom"lari bo'lgan. "Qirq qaroqchi" obrazini "yashirin jamiyatlar" bilan bog'lovchi yana bir detal "Ozodachehra" ertagida uchraydi. Malika qaroqchilar qarorgohiga kelganida ular o'z tillarida "Bizga shunday sohibjamol bola keldi, qirq kungacha bazm qilamiz, keyin uni o'ldiramiz", - deyishibdi⁵⁴. Qaroqchilar o'z tillarida qgapirishlari bejiz emas. Chunki "yashirin jamiyat" o'z sirli tiliga, ko'philik uchun tushunarli bo'lmagan,

⁵³ O'zbek xalq ertaklari. Toshkent, 1981. 105-bet.

⁵⁴ Otin olma. Hayotiy ertaklari. Toshkent. 1986. 83-bet.

faqat “jamiyat” a’zolari orasidagina muomalada bo’lgan muqaddas jargoni, ya’ni kodlashtirilgan til belgilari sistemasiga ega bo’lishgan. Bu “til” faqat “jamiyat” a’zolari orasidagina muomalada bo’lgan. “Ozodachehra” ertagida shu qadimiy odatning bir ko’rinishi ma’lum o’zgarishlarga uchragan holda saqlanib qolgan.

O’zbek xalq ertaklarida qirq qaroqchi, qirq dev, qirq o’g’ri, qirq yigit obrazlarining asosiy ijtimoiy tuzumdagi “yashirin jamiyat”larga va chiltonlar haqidagi xalq qarashlariga borib taqaladi. Binobarin “qirq” raqamining xalq tasavvurida magik son sifatida o’rnashishi ham bevosita ana shu ibtidoiy qarashlarga bog’lanadi.

Xullas, qirq raqamining magik sonlar sistemasidan o’rin olishida qadimgi odamning sanoq sistemasi haqidagi qarashlari muhim rol o’ynagan. Erkaklar jamoasining “yashirin jamiyat”lari bilan bog’liq xalq qarqashlari evolyutsiyasi natijasida qirq raqami mifologik tushunchalar tarkibiga kirib qolgan. Mifologik talqinlardagi ritual ko’plikdan folklor matnlaridagi epik ko’plikka o’tish qirq raqamining “sehrli” son sifatidagi eng muhim xususiyatidir.

Xulosa.

O'zbek folklorida xilma-xil raqamlar qo'llaniladi. Binobarin, xalq og'zaki ijodiyoti badiiyatini mukammallashtiruvchi raqam ramzlari muayyan struktural-semantik va poetik funksiyalarni bajaradi. Poetik formulalar tarkibida turg'unlashib qolgan raqamlarning umumiy xususiyati – ularning badiiy matnda an'anaviyligidir. Ammo ayrim sonlar, aniqrog'i, 3, 4, 5, 7, 9, 40 raqamlari faqat xalq og'zaki poetik ijodiyotida emas, balki marosim va udumlarimiz tarkibida ham qo'llaniladi. O'zbek folklorida qo'llaniluvchi raqamlarni tarixiy asoslari va poetik tabiatiga ko'ra ikkiga bo'ldik:

- 1) an'anaviy raqamlar;
- 2) "sehrli" yoki magik raqamlar.

Qadimgi odamlar samo yoritgichlarining sistemali harakatini, yomg'ir, qor, shamol, olov, zilzila kabi tabiiy hodisalarning asl sababini bilmagan. Ammo u o'z tafakkuriga bo'ysunmagan tashqi olamning xilma-xil mo'jizalarining sirini bilishga doim intilib kelgan. Tabiat kuchlari oldida ojiz bo'lgan qadimiy odam goh ezgulik, goh yovuzlik alomati tarzida tasavvur qilingan g'ayri oddiy kuchlarga sig'ingan. Shu tariqa sehr-jodu qudratiga ishonishga asoslangan qadimgi tasavvurlar sistemasi magik marosimlar yoki magiya paydo bo'lgan. Raqamlar magiyasi yoki "sehrli" raqamlarga sig'inish an'anasi ham ajdodlarimizning sonlar haqidagi g'ayri ilmiy qarashlariga bog'lanadi. Chunki qadimgi odam har xil narsa va hodisalar qatorida ayrim raqamlarda ham qandaydir sehrli qudrat bor deb bilgan, ya'ni ba'zan raqamlarning qudratidan najot kutib, ba'zida ayrim sonlarning "xosiyatsiz" alomatlaridan ehtiyot bo'lib yashagan ajdodlarimiz ayrim raqamlarga alohida e'tibor berish an'anasini yaratganlar.

"Sehrli" raqamlar magiyaning muayyan turi, qadimgi marosimlarning zaruriy komponentlaridan biri bo'lgan. Ajdodlarimiz goh yaxshilik, goh yomonlik keltiruvchi g'aroyib mo'jiza deb hisoblangan sonlar to'g'risidagi mifologik tasavvurlar evolyutsiyasi natijasida sehrli sonlar bilan bog'liq xalq qarashlari shakllangan. Ibtidoiy magik meroslarda qo'llanilgan raqam ramzlari yoki miqdoriy

ko'rsatkichlarning funksiyasi magiyada ko'zlangan umumiy maqsadga muvofiq yaxshilik va yomonlikka xizmat qilishdan iborat bo'lgan. Shu bois xalq tilida, folklor asarlarida, marosim va udumlarimizda ayrim tushunchalarni bir xilda ifodalovchi raqamlar - "sehrli" sonlar paydo bo'lgan.

"Sehrli" raqamlar o'zbek xalq ertaklarining poetik sistemasida o'ziga xos semantik doirani tashkil etdi. Ertak badiiyatini takomillashtiruvchi raqam formulalari asar strukturasi muayyan poetik funktsiya bajaradi. Ertaklardagi "sehrli" raqamlar real matematik miqdorni anglatmaydi. Sanoq sistemasidagi sonlar qatori muayyan arifmetik munosabatlar qo'shuv, ayiruv, bo'luv, ko'paytiruv kabi amallarni bajarish muayyan predmet yoki hodisalarning hisobini olishga mo'ljallangan. Ammo ertaklarda real matematik miqdor ma'nosini anglatuvchi raqamni izlash befoyda. Ertakdagi barcha badiiy detallar kabi sehrli raqamlar ham hamisha an'anaviy va ramziy ma'noda qo'llaniladi. O'zbek xalq ertaklaridagi "sehrli" raqamlarning genezisi qadimgi mifologik tasavvurlar va ibtidoiy sanoq sistemasi bilan bog'liq bo'lib, folklorda asosan uch xil yo'l bilan an'anaviylashib qolgan:

1) sanoq sistemasining taraqqiyoti davomida ayrim katta sonlar haqidagi diniy-mifologik tasavvurlar paydo bo'lishi natijasida xalq ongida ayrim raqamlar alohida e'tibor berish an'anasi paydo bo'lgan ibtidoiy odamning sanoq usullarini o'zlashtirishi davomida uchlik, beshlik, yettilik, qirqlik raqamlar haqidagi turli magik marosimlarda muayyan harakat yoki afsunlar tarkibida an'anaviy tarzda qo'llanilgan sonlar to'g'risidagi xalq qarashlarida, marosim va udumlarda, madaniyat va san'at obidalariga diffuziyalanish natijasida ana shu sonlar bilan bog'liq mifologik modellar sistemasi formulalar tarkibida turg'unlashib ketgan;

2) qadimgi odamning to'rt fasl tushunchalarini dunyoning makoniy va zamonaviy orientatsiyasi sifatida an'anaviylashtirilgan. Shu bois xalq ertaklaridagi an'anaviy "to'rt" soni aksariyat badiiy pozitsiyalarda olamning gorizontol tuzilishi bilan bog'liq. Shuningdek, qadimgi odam olamning vertikal tuzilishini uchlik asosida izohlagan: uch olam – Ko'k, Zamin va Yer osti dunyosi to'g'risidagi qadimiy xalq qarashlari uch raqamini xalq xotirasida muhrlab ketgan;

3) osmon jismlarini doimo kuzatib borgan ajdodlarimiz Yetti qaroqchi yulduzlari bilan bog'liq afsonalari ibtidoiy mifologiyada "yetti" raqamining an'anaviylashuviga asos bo'lgan.

O'zbek xalq ertaklarida "sehrli" raqamlar funksional-semantik xususiyatlariga ko'ra, boshqa turkiy xalqlar folkloridagi magik raqamlar bilan chambarchas bog'liq. 3, 4, 5, 7, 9, 40 raqamlarini muqaddaslashtirish an'anasining asoslari qadimgi turk mifologiyasiga bog'lanadi. Shu sababli qardosh xalqlarning yuqoridagi raqamlar haqidagi qarashlarida tipologik o'xshashliklar va umumiylik mavjuddir. O'zbek xalq ertaklarida u yoki bu raqamlarning sehrli raqamlarning funksional ko'zga tashlanmaydi. "Sehrli" raqamlarning har bir ertak poetik strukturasi o'z o'rnini, funksiyasiga ega. Odatda poetik formulalar tarkibidagi izohlanmaydigan raqam ko'rsatkichlari faqat xabar berish vazifasini ado etadi. "Yo'l yursa ham, mo'l yurib, roppa-rosa uch kech-kunduz yo'l yurdi", "yetti kecha-kunduz jang qildi" kabi epik vaqt formulalaridagi raqamlar ko'rsatkichi qahramon ma'lum muddat harakat qilganligini bildiradi, xolos.

O'zbek folkloridagi "sehrli" raqamlarning tarixiy asoslari va badiiy olamini o'rganish tafakkur mo'jizalari sanalmish qadimiy mifologik tasavvurlar mohiyatini yaxshiroq tushunishga, an'anaviy ramzlar tarzida xalq ongiga singib ketgan va kundalik turmushdagi marosim va udumlarimizda keng qo'llaniluvchi g'aroyib sonlarning fusunkor olamiga safar qilib, xalq fantaziyasining barhayot an'analari sirini chuqurroq anglashga yordam beradi. O'zbek xalq ertaklaridagi "sehrli" raqamlarni o'rganish – raqamlar haqidagi qadimiy xalq qarashlarining poetik tabiatini tadqiq etishning keng imkoniyatlarini ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. 2008. 114-bet.
2. Avazxon. Toshkent. Fan. 1985.
3. Bayzaqov J, Qonaqbayev S. Jumbaq – sirli 4 sani // Ilim va Enbek. 1. 1979.
4. Bekbergenov A. Qaraqalpaq tilidagi sanliqlar. Nokis. 1976.
5. Gulpari. Namangan ertaklari. 1989.
6. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. Toshkent. 1976.
7. Jo'rayev M. O'zbek xalq ertaklarida sehrlir raqamlar. Toshkent. 1991.
8. Jo'rayev M., Xolmuhammadov K. Yetti iqlimdagi “yetti”lar. Toshkent. 1989.
9. Kenesbayev S. Jeti, ush, tog'iz, qiriq, pen baylanisti ug'imder. 1976.
10. Kerim U. Turk dilinde 40. Ankara. 1983.
11. Kosven. O. M. Ibtidoiy madaniyat tarixidan ocherklar. Toshkent. 1980.
12. Kulsa – gul, yig'lasa – dur. Toshkent. 1983.
13. Imomov K. O'zbek xalq prozasi. Toshkent. 1981.
14. O'zbek xalq ertaklari. Toshkent, 1981.
15. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent. 1980.
16. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. Toshkent. 1986.
17. Topishmoqlar. Toshkent. 1983.
18. Бородин А. И. Число и мистика. Донецк. 1975.
19. Давидова О. А. Числительные в русских пословицах и поговорках. Курск. 1978.
20. Жуковская Н. Л. Формы проявления культа природы в пантоне и ритуалах ламаизма. Религия и мифология народов Восточной и Южной Азии. Москва. 1970.
21. Зухба С. А. Абхазская народная сказка. Тбилиси. 1970.
22. Пропп В. Я. Фольклор и действительность. Москва. 1976.

23. Топоров В. Н. К семантике троичности. Москва. 1979
24. Успенский Л. Слова о словах. Москва. 1970. С. 285-288.
25. Членов М. Л. Числовая символика и тайные союзы на Молуккских островах. Москва. 1979.